

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.7
(338)

JURAEV AZIZJON GAFURJON-O'G'LI

**INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISHNI
TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

**Mutaxassislik: 5A230603 - «Investitsiyalarni boshqarish
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)»**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Mamatov B.S.

TOSHKENT-2015

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «Baholash ishi va investitsiyalar» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent B.Mamatov

Kafedra mudiri: i.f.n., dotsent L.Zoyirov

Magistratura bo'limi boshlig'i: i.f.n., dotsent U.Ortiqov

M U N D A R I J A

KIRISH.....	betlar 3
 I BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSH-QARISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI.....	8
1.1. Investitsiya faoliyatining mazmun-mohiyati, amalga oshirish shakllari va xususiyatlari.....	8
1.2. Investitsiya faoliyatini boshqarishning huquqiy asoslari va xususiyatlari.....	17
1.3. Investitsiya faoliyatini boshqarishning ilg'or xorij tajribalari.....	26
Birinchi bob bo'yicha qisqa xulosa.....	33
 II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH AMALIYOTIINING TAHLILI.....	36
2.1. O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyati rivojlanishining amaldagi holatining tahlili.....	36
2.2. Loyiha tsiklining turli bosqichlarida investitsiyalarni boshqarish amaliyotining tahlili.....	47
2.3. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish orqali boshqarishning xususiyatlari tahlili.....	61
Ikkinchi bob bo'yicha qisqa xulosa.....	74
 III BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	76
 Uchinchi bob bo'yicha qisqa xulosa.....	85
 XULOSA.....	87
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	92

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Har qanday mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish holatiga investitsiyalar katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan har qanday davlat ichki va tashqi investitsiyalarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga faol jalb qilish, ulardan samarali foydalanishga harakat qiladi. Yalpi ichki mahsulotda investitsiyalarning ulushi ko'rsatkichi esa turli mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini taqqoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi va bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 20 foizni tashkil qiladi"¹.

Bir vaqtning o'zida yalpi ichki mahsulot tarkibida investitsiyalar ulushini oshirish mamlakatda olib borilayotgan investitsiya siyosati samarasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida: "Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi"², deb ta'kidlab, investitsiyalarning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli va ahamiyatini yuqori baholaydi.

2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Investitsiya dasturini

¹ Станиславчик Е.Н. Бизнес план. Управление инвестиционными проектами. – М.: «Ось-89», 2009. – С. 3.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir". "Xalq so'zi", 2015 yil 17 yanvar, 11-son, 1-b.

amalga oshirishda korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalarning yildan-yilga faol ishtirok etayotgani barchamizga alohida mamnuniyat bag'ishlaydi. Birgina o'tgan yilda bunday investitsiyalar hajmi 10,3 foizga o'sib, 4 milliard 300 million dollarni yoki jami investitsiyalar hajmining qariyb 30 foizini tashkil etdi³.

Demak, iqtisodiyotning rivojlanish darajasi bevosita investitsion faollik bilan bog'liqdir. Chunki, investitsion faollik yangi korxonalarning tashkil etilishini, shu asosda yangi texnologiyalarning joriy etilishini, strategik investitsion loyihalarning amalga oshirilishini, jamg'armalarning investitsiyalarga aylanish jarayonining faollashuvini va shu kabilarni anglatadi.

Albatta, yuqoridagi fikrlar mamlakatimizda kapital qo'yilmalarning, investitsiyalarning iqtisodiyot taraqqiyotidagi roliga baho bergan holda ularni samarali boshqarish masalasining dolzarbligini ham ifoda etadi. Chunki, statistik ma'lumotlarga ko'ra yangi tashkil etilgan korxonalarning aksariyati birinchi uch yillikda o'z faoliyatini tugatadi, o'n yildan so'ng esa o'z faoliyatini tugatgan korxonalar soni 2 baravar ortadi. Tadqiqotchilarning fikricha, 100 tadan 90 ta holatda biznesning bankrot bo'lishi yoki uning tanazzulga yuz tutishining asosiy sabablaridan biri boshqaruv tajribasining sustligi yoki yo'qligi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qayd etish joizki, mamlakatda investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish uni boshqarishning usul va vositalaridan nechog'lik samarali foydalanilishi bilan xususiyatlanadi.

Investitsion faoliyatini boshqarish investitsiyalarni rejalashtirish jarayonida investitsiya risklari tahlilini, iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni chuqur va atroflicha tahlil qilishni talab qiladi. Ushbu mezonlar investitsiyalash (kapitalni joylashtirish) bo'yicha qarorlar qabul qilish hamda investitsiyalarni amalga oshirilishini samarali boshqarish uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash, investitsiya risklarini samarali boshqarish, eng avvalo, investitsiya faoliyatini

³ <http://uza.uz>. sayti ma'lumotlari.

boshqarishni tadqiq etish va uni takomillashtirishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu magistrlik dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Dissertatsiya ishining ob'ektini investitsiya faoliyatini boshqarish usul va vositalari tashkil qiladi. Dissertatsiya ishining predmeti bo'lib, investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonida sodir bo'ladigan moliyaviy (iqtisodiy) munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Dissertatsiya ishining maqsadi investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun dissertatsiyada quyidagi vazifalarni hal etish belgilab olindi:

- investitsiya faoliyating mazmun-mohiyati, amalga oshirish shakllari va xususiyatlarini yoritish;
- investitsiya faoliyatini boshqarishning huquqiy asoslari ochib berish;
- investitsiya faoliyatini boshqarishning ilg'or xorij tajribalarini o'rganish va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari yuzasidan takliflar tayyorlash;
- O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyati rivojlanishining amaldagi holatini tahlil qilish va unga oid tendentsiyalarni aniqlash;
- loyiha tsiklining turli bosqichlarida investitsiyalarni boshqarish amaliyotini tadqiq etish;
- investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish orqali boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;
- investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish yo'llarini asoslash;
- investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi investitsiya faoliyatini boshqarish uslubiyaning yanada takomillashtirishga, pirovardida, investitsiya faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlash imkonini beradi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Investitsiya faoliyatini boshqarishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari ko'plab xorijlik iqtisodchilimlar – Беренс В., П.М.Хавранек., Бирман Г., Шмидт С., Бочарев В.В., Золотогорov В.А., Игонина Л.Л., Кольтынюк Б.А., Кузнецов Б.Т., Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г., Марголин А.М. Нешиной А.С. – ilmiy ish olib bordilar.

Mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan M.Angelidi, A.O'lmasov, M.Sharifxo'jaev, A.Vahobov, D.G'ozibekov, N.Haydarov, T.Malikov, O.Olimjonov, N.Siddiqov, N.Karimovlarning ilmiy ishlarida investitsiyalarni boshqarishning ayrim nazariy-huquqiy va amaliy jihatlari o'rganilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Tadqiqot jarayonida dinamik, qiyosiy, deduktik, mantiqiy, analitik, sintetik va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy-nazariy va amaliy g'oyalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan investitsiya faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlashga qaratilgan kelgusidagi maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan investitsiya faoliyatini boshqarish amaliyotida muammolarni hal etishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", "Investitsiya loyihalarini boshqarish" fanlarining o'quv dasturini o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

– investitsiya faoliyatining mazmun-mohiyatini yorqinroq ifodalovchi ta'rifi shakllantirildi;

- investitsiya faoliyati rivojlanishining amaldagi holati tahlili asosida unga oid tendentsiyalar aniqlandi;
- investitsiya faoliyatini boshqarishning huquqiy asoslari o'rganilib, ular bo'yicha muhim ilmiy xulosalar tayyorlandi;
- investitsiya faoliyatini boshqarishning xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari asoslab berildi;
- loyiha tsiklining turli bosqichlarida investitsiyalarni boshqarish amaliyotining tadqiqi natijasida mavjud holat aniqlandi va tegishli ilmiy xulosalar tayyorlandi;
- investitsiya faoliyatini boshqarish, tartibga solish va muvofiqlashtirishning xorij tajribalarini o'rganish asosida undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari asoslab berildi;
- investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari aniqlandi;
- investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 97 betni tashkil qiladi. Tadqiqot ishida 12 ta jadval va 19 ta rasm keltirilgan.

I BOB. INVESTITSIIYA FAOLIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI

1.1. Investitsiya faoliyatining mazmun-mohiyati, amalga oshirish shakllari va xususiyatlari

Investitsiya milliy iqtisodiyotda nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi. Investitsiya⁴ (lot. investio – o’rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o’z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo’yish)dir. An’anaviy tarzda investitsiya deganda kelgusida ko’zda tutilgan daromadlarni olish maqsadida hozirda aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish tushuniladi. Investitsiya mohiyatini tavsiflashdagi bunday yondashuvga milliy, shu bilan birga, xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda birlamchi e’tibor beriladi.

O’zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqida”gi Qonunda ining 3-moddasida (2014 yil 9 dekabr, O’RQ-380-son) investitsiyalarga quyidagicha ta’rif berilgan: “investitsiyalar – qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob’ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga bo’lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka bo’lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar”⁵.

Investitsiya faoliyati sub’ektlarining⁶ investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog’liq harakatlari majmui investitsiya faoliyatining umumiy mazmunini anglatadi, biroq, uning tub mohiyatini ochib bermaydi. Investitsiya faoliyati

⁴ O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: “O’ME” davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 4-tom. 145-b.

⁵ O’zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqida”gi Qonunining 3-moddasi. 2014 yil 9 dekabr, O’RQ-380-son.

⁶ O’zbekiston Respublikasining rezidentlari – fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari; mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari; xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xorijlik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo’lmagan shaxslar va O’zbekistonning chet elda doimiy yashovchi fuqarolari; hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, davlatlar va xalqaro tashkilotlar. O’zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqida”gi Qonunining 3-moddasi. 2014 yil 9 dekabr, O’RQ-380-son.

huquqiy shaxslar, davlat va fuqarolarning investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha jami amaliy harakatlari yig'indisidir. Iqtisodchi-olimlar investitsiya faoliyatiga deyarli bir xil mazmundagi ta'riflarni berishgan. Jumladan, Rossiyalik iqtisodchi-olim В.Бочарев fikricha: "Investitsiya faoliyati – davlat, fuqarolar va huquqiy shaxslarning investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlari yig'indisi"⁷ni anglatadi. Mualliflar А.Арзимияна va boshqalar: "Investitsiya faoliyati investitsiya qo'yish yoki investitsiyalash hamda investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlar yig'indisi"⁸, deb ta'riflaydi.

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlardan M.Angelidi va D.G'ozibekovlar ham investitsiya faoliyatini yuqorida berilgan ta'riflarga yaqin ifodalagan⁹. Ushbu ta'riflarning barchasida investitsiya faoliyatiga mazmunan bir xil tarzda yondashilgan bo'lib, ular investorlarning investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarini aks ettirganlar.

Fikrimizcha, investitsiya faoliyatiga berilgan ta'riflar, uning mohiyatini to'la ochib berolmaydi. Chunki investitsiya faoliyatida investitsiyalash maqsadi, yo'nalishlari, ob'ekti va sub'ektlari ishtiroki, investitsiyalarning ketma-ketligi va ularning o'zgaruvchanligi, ya'ni resurslar (qiymatliklar) – qo'yish (xarajatlar) va investitsiya natijasida samara (foyda, daromad) olish yotishi kerak.

Keng ma'noda, investitsiya faoliyati bu g'oyalarni ishlab chiqish va investitsiya loyihalarini asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, buning natijasida barpo etilayotgan ob'ekt faoliyatini boshqarish va investorlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish imkoniyatlarini ham aks ettiradi.


Investitsiya faoliyatida resurslarni jamlash, ularni qo'yish (joylashtirish, yo'naltirish) va bu jarayon natijasida foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish bir-biri bilan uzviy bog'langandir.

⁷ Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. – М.: «Финансы и статистика», 1998. – Стр. 7.

⁸ Арзимияна и др. Большой экономический словарь. – М.: «Правовая культура», 1994. – Стр. 157.

⁹ Газибеков Д.Г., Ангелиди М.С. Инвестиционная деятельность перед вхождением в рыночную экономику. – Т.: ТФИ, 1994. – Стр. 7.

Investitsiya faoliyatining tarkibiy tuzilishini uning ob'ektlari, investitsiya resurslari va sub'ektlari tashkil qiladi. Moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish ob'ektlari investitsiya faoliyatining ob'ektlari hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Investitsiya faoliyatining tarkibi va mazmuni¹⁰


Shu bilan birga, barpo etilishi va foydalanilishi qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan ob'ektlarga investitsiya kiritish taqiqlanadi.

¹⁰ Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. 54-b.

Investorlarning qaysi mulk shakliga tegishliligiga qarab investitsiya faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- davlat korxonalari va tashkilotlari, davlat ma'muriy boshqaruv organlari amalga oshiradigan investitsiya faoliyati;
- jamoa, ijara, xususiy, aktsiyador va boshqa nodavlat mulkiga asoslangan xo'jalik sub'ektlari, shuningdek, jamoatchilik va diniy uyushmalar, jismoniy shaxslar amalga oshiradigan investitsiya faoliyati;
- xorijiy davlatlar, ularning huquqiy va jismoniy shaxslari, xalqaro uyushmalar amalga oshiradigan investitsiya faoliyati;
- O'zbekiston Respublikasi hukumati, uning huquqiy va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlar, ularning huquqiy va jismoniy shaxslari bilan birgalikda amalga oshiradigan qo'shma korxonalar shaklidagi investitsiya faoliyati.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish shakllarini quyilagi rasm orqali ifodalaymiz:



2-rasm. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish shakllari¹¹

¹¹ O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 9 dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni asosida shakllantirildi.

Investitsiyalar qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin. Qayd etish joizki, investitsiyalarning birlamchi yoki takroran kiritiladigan shakllari o'zgartirilishi ularning investitsiya sifatidagi darajasi o'zgarishiga olib kelmaydi.

Investitsiya faoliyati ob'ektiga daxldor bo'lgan investitsiya resurslari quyidagilardan iborat bo'ladi: pul va boshqa moliyaviy mablag'lar; ko'char va ko'chmas mol-mulklar va ularga doir huquqlar; intellektual mulk ob'ektlari; erga va boshqa tabiiy resurslarga, binolar, inshootlar, uskunalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek, mulk huquqidan kelib chiquvchi ashyoviy huquqlar.

Investitsiya faoliyati sub'ektlarini turli darajadagi investorlar, deb atashimiz mumkin. Investorlar qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachi (mablag' kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo'lishlari, shuningdek, investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin. Investitsiya faoliyatining ishtirokchilari investor bilan tuzilgan shartnoma asosida investorning buyurtmasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisi – bu investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlovchi investitsiya faoliyati sub'ekti. Investor – bu o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati ob'ektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati sub'ekti¹².

Investorlarning qaysi mulk shakliga tegishliligiga qarab investitsiya faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: davlat korxonalari va tashkilotlari, davlat ma'muriy boshqaruv organlari amalga oshiradigan investitsiya faoliyati; jamoa, ijara, xususiy, aktsiyador va boshqa nodavlat mulkiga asoslangan xo'jalik sub'ektlari, shuningdek, jamoatchilik va diniy uyushmalar, jismoniy shaxslar amalga oshiradigan investitsiya faoliyati; xorijiy

¹² Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. 55-b.

davlatlar, ularning huquqiy va jismoniy shaxslari, xalqaro uyushmalar amalga oshiradigan investitsiya faoliyati; O'zbekiston Respublikasi hukumati, uning huquqiy va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlar, ularning huquqiy va jismoniy shaxslari bilan birgalikda amalga oshiradigan qo'shma korxonalar shaklidagi investitsiya faoliyati.

Hozir respublikamizda ishlab chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulotning qanchalik katta qismi jamg'arilib, investitsiya qilinsa, kelajakda iste'mol uchun shuncha katta sharoit yaratiladi. Chunki real jamg'arilgan kapitalning o'sishi jamiyat a'zolari moddiy darajasi tez o'sishining muhim omili hisoblanadi. Bu o'sish yildan-yilga qanday bo'layotganini bilish uchun jami investitsiya tushunchasining ahamiyati, omillarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bizningcha, jami investitsiya tarkibiga barcha shakl va turdagi investitsiyalar yig'indisini kiritish lozim. Shuningdek, jami investitsiyani ma'lum bir vaqt oralig'ida hisoblash maqsadga muvofiq bo'lib, bunday hisoblash oralig'i qilib kalendar bo'yicha bir yilni olish mumkin. Demak, jami investitsiya bu bir yil ichida barcha investorlar tomonidan qo'yilgan hamma shakl va turdagi investitsiyalar yig'indisidir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakat ichidagi jamg'arish va investitsiya qo'yish darajasi past bo'lsa xorijiy investitsiyalardan yagona manba va hal qiluvchi omil sifatida iqtisodiy inqirozdan chiqish va iqtisodiyotni rivojlantirish va foydalanish mumkin emas. Xorijiy investitsiyalar katalizator vazifasini bajaradi, xolos. Demak, avvalom bor, mamlakatning o'zida xo'jalik su'bektlarining investitsiya faolligini rag'batlantirish lozim.

Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar va mexanizmlarni bilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, birinchi navbatda, mamlakatda investitsiya jarayonini faollashtirish va ilmiy asoslangan investitsiya siyosatini ishlab chiqish uchun zarurdir.

Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi barcha omillarni ularning ta'sir doirasidan kelib chiqib, ikki guruhga tasniflash mumkin:

1. Makrodarajada investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar (korxonaga nisbatan barcha tashqi omillar);

2. Mikrodarajada investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar.

Birinchi guruh omillarga quyidagilar kiradi: soliq tizimining takomillashganlik darajasi; investitsiya faoliyatining me'yoriy-huquqiy ta'minoti; investitsiya faoliyatida davlat ishtirokining darajasi; inflyatsiya darajasi; byudjet defitsiti; mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish holati va dinamikasi; moliya-kredit siyosatining takomillashganlik darajasi; mamlakatning xom ashyo va resurslarga boyligi; davlatning iqtisodiy, shu jumladan, investitsiya siyosati; narx-navo va unga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatilishi; alohida hudud, tarmoqlarni rivojlantirishga bo'lgan davlat e'tiborining ustuvorligi; jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy holatlar; bozor munosabatlarining takomillashganlik darajasi; muayyan soha va tarmoqlarda davlat mulkining ustunligi va yoki to'liq amal qilishi; erkin iqtisodiy hududlarning mavjudligi; xorij kapitalini jalb qilish uchun yaratilgan shart-sharoitlar; erga egalik huquqining davlat qo'lida saqlanishi; investitsiyalar kiritishning (qo'yishning, joylashtirishning) risklilik darajasi; iqtisodiyotda davlat sektorining tutgan o'rni; davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning qo'llab-quvvatlanishi.

Ushbu omillar ro'yxatini ko'radigan bo'lsak, ularning ko'pchiligi bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, ular, nafaqat, investitsiya faoliyatiga, shu bilan birga, mamlakatning butun iqtisodiy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat iqtisodiyotining holati, uning rivojlanishi davlatning va barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy imkoniyatlarini aniqlashning asosiy omili bo'lib, investitsiya jarayonlarini faollashtiradi.

Mamlakat iqtisodiyotining holatini YaIM, milliy daromad (MD), davlat byudjeti hajmi va defitsit darajasi, inflyatsiya darajasi, eksport hajmi va uning tarkibi kabi ko'rsatkichlar dinamikasi aniqlab beradi¹³.

¹³ Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014. 40-42-b.

Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari mavjud salohiyatdan samarali foydalanish va investitsiyalar kiritish sur'atlariga bog'liq bo'ladi. Shunga erishish kerakki, iqtisodiyotning o'sish sur'atlari investitsiya qo'yilmalarining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lishi lozim.

Inflyatsiya investitsiya faoliyatiga eng faol ta'sir etuvchi omil bo'lib, o'z navbatida, iqtisodiyotning holatiga bog'liq bo'lib, iqtisodiyot barqarorlashganda va rivojlanganda ushbu ko'rsatkich darajasi pasayib boradi. Bu o'rinda shuni hisobga olish kerakki, inflyatsiya jarayonlari bilan bank krediti foiz stavkasi chambarchas bog'liq bo'ladi. Agar bank foiz stavkasi yuqori bo'lsa, investitsiyaga talab shuncha kamayadi. Bunday bog'liqlik investitsiyalarga talab bilan kutilayotgan foyda me'yorida ham mavjud bo'ladi. Bir vaqtning o'zida sof foyda me'yori bank foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, mamlakatda investitsiya qo'yilmalari hajmi oshishi kuzatiladi, aksincha bo'lsa, kamayadi.

Investitsiya faoliyatini jonlantirishda kuchli ta'sir doirasiga ega bo'lgan navbatdagi omil soliq tizimi va uning takomillashganlik darajasi hisoblanadi.

O'zbekistonda soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirib borish, soliq to'lovchilarni ularning xo'jalik faoliyatiga asossiz aralashuvlardan himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish bilan bir vaqtda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va soddalashtirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Investitsiya faoliyati rivojiga mamlakatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, har qanday davlat iqtisodiyoti mazkur soha rivojisiz me'yorda faoliyat ko'rsata olmaydi.

Investitsiya faoliyati rivojiga davlat ishtiroki darajasi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Davlat (hukumat, vazirlik va muassasalar), nafaqat, investitsiya siyosatini (investitsiya dasturlarini) ishlab chiqishlari zarur, balki ushbu jarayonda (ularni amalga oshirishda) faol ishtirok etishlari ham kerak. Bunda ular byudjetni rejalashtirish jarayonida unga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini aniqlashlari va qat'iy nazorat qilmog'i lozim. Mamlakatimizda bu vaziyatni (manzarani) ijobiy baholash mumkin, jumladan, maqsadli va samarali

investitsiya siyosatining olib borilishi, Davlat investitsiya dasturining amalga oshirilishi, strategik ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini alohida qayd etish joiz.

Yuqorida ko'rib chiqilgan omillar investitsiya faoliyati rivojiga, nafaqat, makro, balki mikrodarajada ham faol ta'sir ko'rsatadi.

Investitsiya faoliyati rivojida nafaqat, tashqi omillar, balki ichki omillar (ikkinchi guruh omillari, mikrodarajada) ham keng ta'sir doirasiga ega. Bunday omillarga: korxonalar ko'lami va moliyaviy holati; amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullarini qo'llash; korxonalarning ilmiy-texnik siyosati; korxonalarning investitsiya siyosati; xo'jalikning tashkiliy-huquqiy shakli va boshqalar kiradi.

Korxonalar ko'lami bevosita tarzda investitsiya faoliyati ko'lamiga ta'sir ko'rsatadi. Yirik korxonalar (boshqa sharoitlar teng bo'lgan holatda) kichik korxonalarga qaraganda ko'p miqdordagi moliyaviy resurslarga ega bo'lishadi.

Korxonalarning investitsiya faoliyati bevosita iqtisodiy, shu jumladan, investitsiya siyosatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, agar korxona texnik qayta qurollantirish va ta'mirlashni rejalashtirsa, albatta, uni amalga oshirish uchun aniq manbalarni ko'zda tutishi lozim.

Xo'jalikning tashkiliy-huquqiy shakli ham korxonalar investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, kredit tashkilotlari bunday korxonalarga ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Bunday korxonalarda o'z majburiyatlari bo'yicha javob berishi ham turlicha bo'ladi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga tijorat banklari, shu jumladan, xorijiy kredit tashkilotlari ishonchsizlik bilan qaraydi. Chunki bunday korxona ta'sischilari o'z majburiyatlari bo'yicha cheklangan javobgarlikka (o'z qo'yilmalari chegarasida) ega bo'ladi. Bu ushbu korxonalarning ko'lami va imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, bunday korxonalarda investitsiya faoliyati bilan bog'liq javobgarlik darajasi va risk turlicha bo'ladi. Masalan, davlat unitar korxonalarning samarasiz investitsiya qo'yilmalari natijasida bankrot bo'lish

riski unchalik katta emas, chunki ushbu korxonaning mulkdori davlat hisoblanadi va korxonaning bankrot holatiga uchrash ehtimoli juda ham kam.

1.2. Investitsiya faoliyatini boshqarishning huquqiy asoslari va xususiyatlari

Mamlakatimizda investitsiya loyihalarini samarali boshqarish davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsad yo'lida ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi, "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlarida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish, investitsiyalarni amalga oshirish tartibi, investorlar uchun yaratilgan kafolatlar, imtiyozlar va rag'batlantirish omillari belgilab berildi.

Investitsiya loyihalarini boshqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquqiy hujjat 2011 yil 23 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, shuningdek, investitsiya loyiholari yuzasidan tashabbus ko'rsatish va amalga oshirish uchun mas'ul yirik korxonalarning tarkibiy bo'linmalarini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 84-sonli Qarori hisoblanadi. Ushbu Qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442-sonli, "2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida"gi 2010 yil 21 dekabrda PQ-1446-sonli Qarorlarining va har yil qabul qilinadigan investitsiya hamda mahalliyashtirish dasturlarining o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash, ilg'or texnologiyalarga asoslangan modernizatsiyalash, mahalliyashtirish va

mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish loyihalari bo'yicha tashabbus ko'rsatish va ularni amalga oshirish, investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimini yanada takomillashtirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlar, shuningdek, investitsiya loyihalari yuzasidan tashabbus ko'rsatish va amalga oshirish uchun mas'ul yirik korxonalarning tarkibiy bo'linmalarining kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida qabul qilindi.

Mazkur qarorda investitsiya loyihalarini samarali boshqarish imkonini beruvchi quyidagi muhim vazifalar belgilab berilgan. Xususan,

- ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarini joriy etishning zarurligi yuzasidan texnik auditini o'tkazish, uning natijalariga ko'ra asbob-uskunalarni va texnologiya jarayonlarini modernizatsiyalash loyihalari bo'yicha tashabbus ko'rsatish;

- ishlab chiqarilayotgan hamda ishlab chiqarish o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar nomenklaturasi bo'yicha doimiy marketing tadqiqotlarini tashkil etish, ularning natijalariga ko'ra mahsulotlarning yangi turlarini mahalliyashtirish va ishlab chiqarish loyihalari bo'yicha tashabbus ko'rsatish;

- zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiquvchi va ularga egalik qiluvchi xorijiy tashkilotlarni aniqlash, ularni modernizatsiyalash, mahalliyashtirish va mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish loyihalari bo'yicha strategik sherik sifatida jalb qilishning maqsadga muvofiqligini o'rganish;

- modernizatsiyalash va tarmoqlarni, tashkilotlarni va yirik korxonalarni rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, loyihalar ro'yxatini va moliyalashtirish manbalarini ko'rsatgan holda mahsulotlarni chuqur mahalliyashtirishga yo'naltirilgan dasturlarni har yili yangilash yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- xorijiy tashkilotlarni rivojlantirish va modernizatsiyalashning davlat va tarmoq dasturlariga kiritilgan loyihalarni amalga oshirishga strategik sherik sifatida jalb qilishning maqsadga muvofiqligini o'rganish maqsadida ular bilan tizimli ish olib borish;


- rivojlantirish va modernizatsiyalashning davlat va tarmoq dasturlariga kiritilgan investitsiya loyihalarning loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish ishlarini tashkil etish;
- investitsiya loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq tanlov (tender) savdolarini tashkil etish va kontraktlar tuzish ishlarini muvofiqlashtirish;
- investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi monitoringini olib borish;
- investitsiya muhitini yaxshilash va tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash.

Ko'rib turganimizdek, ushbu hujjat investitsiya loyihalarini samarali boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iborat. Albatta, ushbu belgilangan vazifalarning izchil ijrosining ta'minlanishi, o'z navbatida, mamlakatimizda investitsion loyihalarni samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qayd etish joizki, investitsiya loyihalarini boshqarishning huquqiy asoslari keng ko'lamli chora-tadbirlarni ko'zda tutadi. Jumladan, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish, moliyalashtirish tartiblari, tenderlar tashkil qilish, investitsiya loyihalari monitoringini olib borish va h.k. Ana shulardan kelib chiqib, mamlakatimizda investitsiya loyihalarini boshqarishga mas'ul bo'lgan muassasa va uning tarkibidagi boshqarmalarning asosiy vazifalari va funktsiyalarini 3-rasm orqali izohlash mumkin.

Investitsiya loyihalarni boshqarish bilan shug'ullanuvchi muassalar asosiy vazifalari va funktsiyalariga qo'shimcha ravishda quyidagilarni ham kiritish mumkin:

- xorijiy investorlar va kreditorlar bilan kelishilgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihalarni amalga oshirish jadvalariga qat'iy rioya qilgan holda, loyihalarning o'z vaqtida va samarali ro'yobga chiqarilishini ta'minlash uchun tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- loyihalarni amalga oshirish guruhlarini ishini muvofiqlashtirish; investitsiya muhitini yaxshilash va tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash va kiritish.



3-rasm. Investitsiya loyihalarini boshqarish bilan shug'ullanuvchi muassasalarning vazifalari va funktsiyalari¹⁴

Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlari zamonaviy texnologiyalarga muvofiqligi yuzasidan ularning texnik auditini o'tkazish, bozor ehtiyojlarining, ilm-fan, texnika va yangi texnologiyalar yutuqlarining marketing tahlillari asosida modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash loyihalarini, mahalliyashtirish dasturini ishlab chiqish, loyiha hujjatlarini tayyorlash, shuningdek, investitsiyalarni, kreditlar va grantlarni jalb etish sohasida:

- marketing bo'linmalari bilan birgalikda ishlab chiqariladigan va o'zlashtirish potentsial mumkin bo'lgan mahsulotlar nomenklaturasi bo'yicha ichki va tashqi sotish bozorlari kon'yunkturasini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni tizimli asosda tayyorlaydi, uning o'rtacha va uzoq muddatli istiqbolda bozor rivojlanishini prognozlashtirishni o'z ichiga oladigan tarkibi va dinamikasini belgilab beradigan asosiy omillarni aniqlaydi;

- respublika tarmoqlarining import qilinadigan mahsulotlari (xizmatlari) hajmi, tarkibi va nomenklaturasini chuqur tahlil qiladi;

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 23 martdagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, shuningdek investitsiya loyihalari yuzasidan tashabbus ko'rsatish va amalga oshirish uchun mas'ul yirik korxonalarning tarkibiy bo'linmalarini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 84-sonli Qarori asosida shakllantirilgan.

– har yili tarmoqni (korxonani) modernizatsiyalash va rivojlantirish, loyihalar ro'yxatini va ularni moliyalashtirish manbalarini o'z ichiga oladigan, shu jumladan, mahsulotni mahalliyashtirishni chuqurlashtirishga qaratilgan dasturlarini ishlab chiqadi va yangilaydi va shu asosda O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturini shakllantirishda qatnashadi;

– sanoat tarmoqlarini, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va iqtisodiyotning ijtimoiy sohasini rivojlantirish va modernizatsiyalash davlat va tarmoq dasturlariga kiritish uchun loyiha takliflari ro'yxatini shakllantiradi va doimiy ravishda yangilaydi;

– investitsiya taklifini va pasport, biznes-rejani, dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash, texnik-iqtisodiy asoslash, dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash, texnik-iqtisodiy hisoblash hamda loyiha o'ziga xosligini hisobga olgan holda boshqa zarur hujjatlarni o'z ichiga oladigan loyiha hujjatlari ishlab chiqilishi, kelishilishi va belgilangan tartibda tasdiqlanishini muvofiqlashtiradi;

– birinchi navbatda, modernizatsiyalash, sanoatni rivojlantirish, mahalliyashtirish dasturlariga va har yilgi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha investitsiya takliflarining loyiha hujjatlarini investitsiya loyihalarining yagona bazasiga kiritish uchun belgilangan tartibda Iqtisodiyot vazirligiga hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga tizimli asosda kiritadi;

– investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb etilishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash va ushbu yo'nalishda ish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritadi;

– xorijiy mamlakatlar va transmilliy korporatsiyalarning investitsiya qo'yish va sanoat ixtisoslashuvi imkoniyatlarini tahlil qiladi, potentsial investorlarning texnik va moliyaviy imkoniyatlarini o'rganadi va shu asosda ularning investitsiyalarini aniq tarmoq va loyihaga jalb etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

– ishlab chiqaruvchilar bo'yicha jahon darajasidagi yangi ilg'or texnologiyalarni, texnik parametrlarni va asbob-uskunalar, texnologiyalar va xizmatlarning qiymatlarini tahlil qiladi, ularning ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va doimiy ravishda yangilaydi;

– loyihalarni amalga oshirish uchun memorandumlar, ta'sis hujjatlari, investitsion va moliyaviy bitimlar va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi va belgilangan tartibda kelishadi;

– investitsiya loyihalarining tayyorlanishi to'g'risidagi axborotni tayyorlaydi hamda uning muntazamlilik asosida Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga taqdim etilishini ta'minlaydi;

– delegatsiyalar, missiyalar, xorijiy investorlar, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari vakillarining muvaffaqiyatli va samarali ishlashi uchun zarur tashkiliy, axborot va maslahat yordami ko'rsatadi, shuningdek, loyihalarni tayyorlash, baholash va sharhlash uchun zarur tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda ularga ko'maklashadi;

– investitsiya loyihalarini amalga oshirish to'g'risida Hukumat qarorlari loyihalari tayyorlanishi, kelishilishi va tasdiqlash uchun kiritilishini ta'minlashga oid zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish (tenderlar o'tkazish, kontraktlar tuzish va ularni ro'yxatga olish, tarmoq jadvallarining, investitsiya majburiyatlarining bajarilishi), mahalliyashtirish dasturlari monitoringi sohasida: sanoatni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturlariga, tarmoq dasturlariga va Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishning tarmoq jadvallarini ishlab chiqadi, kelishadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi; ijro etuvchi agentlik tuzilmasida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi investitsiya loyihalari loyihani amalga oshirish tarmoq jadvaliga muvofiq ularni foydalanishga topshirishga qadar o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi; tender hujjatlari o'z vaqtida ishlab chiqilishini va

belgilangan tartibda kelishilishini ta'minlaydi, tender (tanlov) savdolari o'tkazilgunga qadar xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar bozori kon'yunkturasini marketing yo'li bilan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan konsalting kompaniyalarini jalb etgan holda o'rganadi; tender (tanlov) savdolari o'z vaqtida o'tkazilishini, kontraktlar tuzilishini belgilangan tartibda ta'minlaydi, ularni ekspertizadan va ro'yxatdan o'tkazadi; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, xalqaro qoidalarga hamda tegishli xalqaro moliyaviy iqtisodiy institutlar va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining tartib-qoidalariga muvofiq tuzilgan kontraktlar bo'yicha asbob-uskunalar, materiallar etkazib berish hamda ishlar va xizmatlarni bajarish monitoringini amalga oshiradi; imzolangan kontraktlar bo'yicha investitsiya bitimlarining xorijiy sheriklari, etkazib beruvchilar va pudratchilar, investitsiya loyihalarini tuzilgan kontraktlarga qat'iy muvofiq ravishda o'z vaqtida moliyalashtirish bo'yicha vakolatli banklar tomonidan majburiyatlar bajarilishi ustidan monitoring olib boradi; Davlat investitsiya dasturi va boshqa dasturlar, shu jumladan, tarmoq dasturlarini shakllantirish yuzasidan takliflar kiritadi; investitsiya loyihalari amalga oshirilishi to'g'risidagi axborotni kelishilgan shakl bo'yicha muntazamlilik asosida Iqtisodiyot vazirligiga hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga taqdim etadi; investitsiyalar va kreditlar jalb etilishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va tahlil qilish asosida ularni tezkor bartaraf etish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, investitsiyalarni jalb etish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash va ushbu yo'nalishda ish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

Investitsiya loyihalarini boshqarishda davlat Investitsiya dasturi ham muhim o'rin tutadi. 2014 yil 17 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi investitsiya dasturi to'g'risida"gi 2264-sonli Qarori qabul qilindi. Bu hujjat, nafaqat, Vatanimiz tadbirkorlariga, balki, xorijiy investorlar uchun ham harakat qo'llanmasi bo'lib hisoblanadi. Unda iqtisodiy rivojlanishning tarmoqli yo'nalishlari va

mamlakatimiz mintaqalarida milliy iqtisodiyotning barcha ustuvor tarmoqlari bo'yicha barcha manbalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiyalar hajmi belgilab olinadi. Xususan, 2011-2014 yilgi Investitsiya dasturi doirasida kapital qo'yimlarning asosiy parametrlari tarkibida korxona mablag'lari hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar asosiy salmoqni egallaganligini quyidagi ma'lumotlaridan ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi doirasida kapital qo'yimlarning asosiy parametrlari, mln. so'mda¹⁵

Moliyalashtirish manbalari	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014yil	2014 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, marta
Kapital qo'yimlar, jami	20721845	23679701	27123275	33004774	1,6
Shu jumladan:					
1. Markazlashtirilgan investitsiyalar:	4696491	5740892	6691366	8548334	1,8
2. Markazlashtirilmagan investitsiyalar:	16025354	17938809	20431910	24456440	1,5

O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi Investitsiya dasturida kapital qo'yimlarning asosiy parametrlari va davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 2015 yil uchun markazlashtirilgan kapital qo'yimlar limitlari belgilanib olindi. Dasturda ko'rsatilgan ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish mavjud bo'lgan zahira, xom ashyo quvvatlariga mos keladi va iqtisodiyotni tubdan qayta qurish, transport, kommunikatsiya, irrigatsiya, qayta ishlash va ilmiy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish asosida jahon bozoriga uyg'unlashuvini nazarda tutadi.

Xullas, aytish mumkinki, yuritilayotgan investitsiya siyosati investitsion muhitni tashkil etish, investitsiya faoliyatini amalga oshirish, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar kirib kelishini kuchaytirish va shu yo'l bilan mamlakatning iqtisodiy ravnaqini ta'minlashga qaratilgandir. Shu maqsad yo'lida O'zbekistonda investitsion faoliyatini muvofiqlashtirishning o'ziga xos tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu tizim bugungi kunda samarali faoliyati yuritayapti. Ushbu tizimda, asosan, davlat organlari va davlat ahamiyatiga molik

¹⁵ Tegishli yillarda qabul qilingan Investitsiya dasturi ma'lumotlari asosida tuzildi.

bo'lgan tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:


2-jadval

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadigan rasmiy muassasalar¹⁶

1.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish departamenti	Quyidagi joriy jarayonlarni muvofiqlashtiradi: - investitsiya faoliyatini, birinchi navbatda, chet el investitsiyalari bilan amalga oshiriladigan loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur hukumat qarorlarini ishlab chiqish; - davlat boshqaruvi idoralari, vazirliklar va idoralar ishini tashkil etish va boshqalar.
2.	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va boshqa tegishli vazirliklar	Investitsiya siyosatini va dasturlarini ishlab chiqish va boshqalar
3.	O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi	Davlatga tegishli mulkni xususiyashtirish va tasarruf etish jarayonlarida chet el investitsiyalarini tartibga solish va boshqalar
4.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	Qarz siyosati va hukumat kafolatlarini berish va boshqalar
5.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni ro'yxatga olish va boshqalar
6.	O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi	Xorijiy investorlarga va O'zbekistonda ishlayotgan ajnabiy fuqarolarga vizalar berish va boshq.
7.	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi	Xorijiy investorlarni va O'zbekistonda ishlayotgan ajnabiy fuqarolarni turar joyi bo'yicha ro'yxatga olish va boshq.
8.	O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va ularning bojxona bilan bog'liq faoliyatini tartibga solish va boshq.
9.	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki	Konvertatsiya tartib-qoidalarini, shuningdek, uning o'tkazilishini, valyuta mablag'laridan foydalanishni tartibga solish, qarz siyosati va boshq.
10.	O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bank	Tashqi iqtisodiy faoliyatga bank xizmati ko'rsatish va loyihani moliyalashni amalga oshirish va boshq.
11.	O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi	- mamlakat va xorij investorlarining investitsiya takliflari to'g'risida ma'lumotlar bankini shakllantirish; - investitsiya muhitini o'rganish; - xorijiy investorlarga axborot va boshqa xizmatlar ko'rsatish; - investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mamlakat va xorij investorlariga yordam ko'rsatish; - chet el kapitali ishtirokida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining bajarilishini kuzatish (monitoring); - xorijiy investorlarga davlat ro'yxatidan o'tilganidan keyin yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishida yordam berish (Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda)
12.	"O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi	Chet el investitsiyalarini investitsiya tavakkalchiligidan sug'urtalash
13.	"O'zbekinvestloyiha" milliy injiniring kompaniyasi	Dastlabki texnik-iqtisodiy asosnomani va investitsiya loyihalari texnik-iqtisodiy asosnoialarini tayyorlash va boshq.
14.	Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi	Qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohalarida davlat siyosatini amalga oshirish. Mamlakat va xorijiy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olish orqali majmua investitsiyalarini amalga oshirish va boshq.

¹⁶ Tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish asosida shakllantirildi.

Ushbu tizim sub'ektlari alohida holda faoliyat yurita olmasliklarini jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. Ular bir-birining faoliyatini to'ldirgan holda chet el investitsiyalarini jalb qilish va shu asosda loyihalarni amalga oshirishni samarali boshqarish va muvofiqlashtirish imkonini beradi.



4-rasm. Investitsiya faoliyatini boshqarishning makroiqtisodiy dastaklari¹⁷

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, investitsiya faoliyatini boshqarish, nafaqat, loyiha tashabbuskorlari va banklar zimmasida bo'ladi, balki davlat tomonidan yaratilgan me'yoriy-huquqiy tizim, jumladan, investitsiyalar bilan shug'ullanuvchi muassasalarning roli, soliq va bojxona imtiyozlari, monetar omillar, Investitsiya dasturi va boshqalar investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish va samarali boshqarish imkonini beradi.

1.3. Investitsiya faoliyatini boshqarishning ilg'or xorij tajribalari

O'zbekiston iqtisodiyotini yuqori sur'atlar bilan rivojlantirishda tarkibiy o'zgarishlarga katta e'tibor berilmoqda. Davlat investitsion siyosatining asosiy yo'nalishlarida xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi muhim ahamiyatga ega.

Xozirgi vaqtga kelib rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga investitsiya loyihalarini boshqarish bo'yicha boy tajribalar to'plangan. Mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlarining o'sishi, ishlab chiqarish hajmlarining ortishi, ijtimoiy infratuzilma rivoji va mavjud muammolarni

¹⁷ Nazariy ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

bartaraf etilishi, aynan, investitsiya siyosatining hamda loyihalarning samarali boshqaruviga bog'liq.

Keyingi o'n yilliklarda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan Osiyo-Tinch okean mintaqasi davlatlari xorijiy kapitalni o'zlashtirish va boshqarish bo'yicha andozalarni yaratdi. 50-yillarda Yaponiyaning shiddat bilan rivojlanishiga, 60-yillarning oxirida va 70-yillarning boshida Tayvan, Gonkong, Singapur va Janubiy Koreyaning iqtisodiy taraqqiyot sur'atlaridagi keskin sakrashlarga, 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshida Xitoy iqtisodiyotining yuqori sur'atlar bilan o'sishiga, so'nggi yillarda V'etnam iqtisodiyotining yuksalishiga bir qator omillar, ya'ni ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar, investitsiyalardan samarali foydalanish va uni boshqarish sabab bo'ldi.

Shuningdek, keyingi yillarda Sharqiy Evropa mamlakatlari ham investitsiyalarning tarkibiy o'zgarish bosqichlarini kechirmoqda. Ular iqtisodiyotida jam bo'lgan investitsiyalar umumiy hajmining katta qismi 1990 yildan keyingi davrga to'g'ri keladi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qulay investitsion muhit yaratish va shu yo'l bilan mamlakatda bozor mexanizmini shakllantirish va jahon iqtisodiyoti globallasuvi jarayonida ishtirok etishga erishish mumkin.

AQSh, Yaponiya va Germaniya kabi dunyoning iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlari tarkibiy o'zgarishlarni investitsiyalar yordamida boshqarish hamda muvofiqlashtirishda katta tajribaga egalar. Ana shu o'zgarishlarning ikki muhim davrini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Birinchisi, bu bevosita ikkinchi jahon urushidan keyingi davr bo'lsa, ikkinchisi iqtisodiyotning mavjud tuzumini keng ko'lamda qayta qurilishi bilan ajralib turgan XX asrning 70-yillaridir. Darhaqiqat, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar investitsiyalarni boshqarishni turlicha hal etgan edilar. Masalan, Yaponiyada iqtisodiyotni tiklash ishlab chiqarish tarmoqlari bandligini oshira borish hamda ularni qayta qurishga mablag'lar ajratishni yo'lga qo'yish orqali amalga oshirildi. Xorijiy texnologiyalarni qarzga olish evaziga eskirgan dastgoh va uskunalar ishlab

chikarishdan olib tashlandi va shu yo'l bilan ishlab chiqarish tarmoqlari yangilanib, kapital-resurslar jamg'armasiga erishildi. Davlat mamlakatning umumiy taraqqiyotini ta'minlash va uning iqtisodiy hamda ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish uchun ustuvor tarmoq va ishlab chiqarishlarga investitsiyalar joylashni rag'batlantirish va ularni samarali boshqarish siyosatini amalga oshirdi. Umuman tarkibiy qayta qurishning yaponcha siyosati katta miqdorda kapital jamlanishi va ustuvor ishlab chiqarish tarmoqlarga investitsiya oqimlarining rag'batlantirilishi bilan ta'minlandi.

Yaponiya ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish yillarida AQShdan katta miqdorda yordam oldi. Shuni e'tirof etish kerakki, bu yordam pul bilan emas, tovarlar shaklida amalga oshirildi. Aynan shu hol pul qadrsizlanishining oldini olish imkonini berdi. Bu yordamning sharti – tovarlar sotishdan tushgan mablaglar investitsiyalarga yo'naltirilishi kerak edi. U maxsus byudjet hisobraqamiga o'tkazilib, 50-yillarda davlat taraqqiyot banki orqali iqtisodiyotni sog'lomlashtirish maqsadida ishlatildi. 1962 yildan keyin Yaponiya AQShga o'n yil ichida undan olgan barcha ko'magini (pul ko'rinishida) qaytardi.

Germaniya uchun iqtisodiyotni urushdan keyingi tiklash davlatning faol ishtiroki ostida ushbu jarayonni tashkil etish va boshqarish xususiyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu esa, birinchi navbatda, kapital qo'yilmalarni byudjetdan moliyalashtirishga erishishda o'z aksini topdi. Xorijiy tovar kreditlari mamlakatdagi mavjud zaxira imkoniyatlaridan foydalanish imkonini berdi. Kapital qo'yilmalarning moliyaviy ta'minlanishida ishtirok etadigan turli davlat fondlari tashkil etilib, tadbirkorlik va xususiy sektorda kapital jamlanishini tezlashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

AQSh iqtisodiyotida Ikkinchi jahon urushidan keyin yalpi ishsizlik va iqtisodiy tushkunlik xavfi yuzaga keldi. O'tkazilgan iqtisodiy islohotlar xarbiy ishlab chiqarishlarni konversiyalab, yangi qurilishlar va texnologik asbob-uskunalarga katta investitsiyalar joylashga imkon berdi. Shu bilan birga amaldagi ishlab chiqarishlar qayta qurildi va modernizatsiyalashtirildi. Eksportning yarmi federal hukumat tomonidan moliyaviy ta'minlandi. Davlat

uy-joy qurilishini bu sohadagi xususiy kreditlarni sug'urtalash hisobiga rag'batlantirib bordi. Boshlangan "sovuq urush" harbiy qayta qurollanishni byudjet orqali moliyaviy ta'minlanishini belgilab qo'ydi. Bundan tashqari, ushbu davr aholi daromadlarining barqaror oshishi, iste'mol talablarining oshishi va boshqa qator omillar bilan ajralib turdi.

O'tgan asrning 70-yillari ikkinchi yarmida deyarli barcha mamlakatlarda ishlab chiqarish jarayonlari buzildi. Bu hol birinchi navbatda ularda asosiy kapitalning ortiqcha jamlangani tufayli yuz berdi. Neft narxining oshishi natijasida mamlakatlar va neft eksporti bilan shug'ullanuvchi mamlakatlar o'rtasida xalqaro ayirboshlash mutanosibligi buzildi. Daromad normasining pasayishi ortidan jamg'arma ulushi ham tushib, bu iqtisodiy o'sishning pasayishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Bularning bari davlatlardan kapitalni qayta ishlab chiqarishning ham qiymat, ham moddiy nomutanosibliklari muammosini hal etishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarning uzoq muddatli siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qildi. Bunda asosiy vazifa ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, daromadlarni ko'paytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga hamda mavjud resurslarni tejashga qaratilgan iqtisodiyotni modernizatsiyalashga o'tish bo'ldi.

Shunday tarkibiy qayta qurishning birinchi bosqichi xom ashyo, energiyani tejashni ta'minlaydigan, ilmiy-texnika imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradigan tashkiliy choralarga tayandi.

O'tgan asrning 70-yillari oxirida taraqqiy etgan kapitalistik davlatlarda ilg'or texnologiyalar va asbob-uskunalarni joriy etish hisobiga asosiy kapitalni yalpi yangilash jarayoni boshlandi. Shu asnoda iqtisodiyotda chuqur va faol tarkibiy siljishlarga erishildi. Ushbu jarayonlarning amalga oshishida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining qisqa vaqt ichida ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini o'zlashtirishga qodirligi asosiy o'rin tutdi.

Yangicha investitsiya siyosatning mohiyati dastlab, ishlab chiqarishni yangi texnologiyalar asosida texnik jihatdan qayta jihozlashga mo'ljallangan kapital

qo'yilmalarning an'anaviy, imkoniyatlari chegaralangan ishlab chiqarish vositalaridan voz kechishdan iborat bo'ldi. Umumiy o'sish sur'atlari pastligiga qaramay, texnik taraqqiyotni ilgari etaklaydigan tarmoqlarga investitsiya joylash yuqori sur'atlar bilan o'sdi. Bu birinchi navbatda elektronika va aloqa vositalari sanoatini o'z ichiga oldi.

Investitsion muhitning yaxshilanishida o'tgan asrning 80-yillaridagi soliq islohotlari katta o'rin tutdi. Ular tadbirkorlik faolligini oshirib, korporatsiyalar ixtiyoriga kelib tushayotgan mablag' miqdorini ko'paytirdilar va oxir-oqibatda barcha rivojlangan mamlakatlarda keng ko'lamli investitsiyalar uchun zamin hozirladilar.

Investitsiya jarayonlarining davlat tomonidan muvofiqlashtirilishini o'rganishda Frantsiya tajribasi muayyan ahamiyatga ega. 1990-1996 yillarda boshqa Evropa davlatlaridan farqli tarzda Frantsiyada ishsizlikning mislsiz oshib ketishi, ishlab chiqarish hajmlarining tushib ketishi va barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yomonlashuvi yuz berdi. Investitsiya jarayonlari o'tgan asrning 90-yillari boshiga kelib susaydi. 1994 yildagi muayyan jonlanishdan so'ng investitsiyalar o'sishi avval sekinlashib, so'ng butunlay to'xtadi. Shu hodisalar bilan bog'liq ravishda hukumat investitsiyalarni rag'batlantirishga oid qator chora-tadbirlar ko'rishga majbur bo'ldi. Aytib o'tish joizki, Frantsiyada 1983 yildan beri o'tkazilayotgan pul qadrsizlanishiga qarshi o'tkazilayotgan siyosat 1992 yilga kelib davlat byudjeti defitsitini kamaytirish va inflyatsiya sur'atini susaytirish imkonini berdi. Foiz stavkasini qat'iy monetar siyosat asosi sifatida boshqarish ham muayyan natija berdi. Shu bilan birga narx-navoning, shuningdek, yashirin ravishda tushishiga moyillik kuzatildi. Eng arzon tovar va xizmatlar iste'moli ortib bordi. Aksariyat frantsuz iqtisodchilari investitsiyalar tanqisligini tayyor sanoat tovarlari narxining pastligi bilan izohlaydilar.

1993-1995 yillarda Frantsiya hukumati uy-joy qurilishini kengaytirish, ishlab chiqarish va investitsiyalarni rag'batlantirish, ishsizlikning oldini olish hisobiga iqtisodiyotni jonlantirish dasturini amalga oshirdi. Kapital va uy-joy qurilishi kreditlari olish imkoniyati engillashtirilib, qurilish ishlariga davlat

buyurtmalari kiritilib, qator soliq imtiyozlari va xususiy shaxslar jamg'armalarini rag'batlantirish choralari amalga oshirildi.

1996 yilda taxmin qilingan investitsiyalarning keskin o'sishi amalga oshmay, korxonalar faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlari yomonlashdi. o'tgan asrning 90-yillarida Frantsiyada investitsiya inqirozi ro'y berdi. Shu davrning o'zida hukumat soliq imtiyozlari, shu jumladan, imtiyozli soliq kreditlari berish, grantlar, shu jumladan, er grantlari berish orqali katta miqdorda xorijiy investitsiyalar jalb etishga erishdi.

Boshqa rivojlangan mamlakatlardagi kabi ishlab chiqarish va investitsiyalarni rag'batlantirish usullari Frantsiyada, asosan, soliq stavkalarini pasaytirish va soliq imtiyozlari berishdan iborat bo'ladi. Shu vaqtning o'zida buning qator xususiyatlari ham bor. Misol uchun, yalpi ichki mahsulot tarkibidagi daromad solig'i ulushining kamligi o'rnini qo'shilgan qiymat solig'idan kelgan katta tushum qoplaydi. Bundan tashqari, daromad solig'iga, daromad darajasiga bog'liq ravishda, differentsiatsiyaning yuksak darajasi xosdir. Evropa Ittifoqining boshqa davlatlaridan farqli o'laroq Frantsiya davlat byudjetiga korxonalarning foyda solig'idan kelib tushayotgan tushum juda oz va kamayib borish xususiyatiga ega. Frantsiya boshqa mamlakatlarga qaraganda soliq bazasini o'zgartirish imkonini beruvchi o'zining ixcham soliq qonunchiligiga ega. Investitsiyalar va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish uchun xatto soliqlardan butunlay ozod qilishni ham o'z ichiga olgan imtiyoz va kreditlarning juda keng ro'yxati mavjud. Bu yangi yaratilgan kompaniyalar, kichik korxonalar, venchur firmalariga oid.

Xorijiy tajribani o'rganish shundan dalolat beradiki, davlat iqtisodiyotida tarkibiy va sifat o'zgarishlarni muntazam ravishda faol amalga oshirish mo'him o'rin egallab kelgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash kerakki, investitsiyalarni boshqarishda quyidagi printsiplarga asoslanish zarur:

1. Loyiha mahsulotining mahsuloti (tovar)ning strategik taqdiri, bozorbopligiga katta ahamiyat berish;

2. Resurslarning qat'iy cheklanganligi sharoitida yordamni alohida tarmoqlarga emas, balki investitsion ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning eskilaridan voz kechish va yangilariga ega bo'lishga qaratilgan tadbirlarini qo'llab-quvvatlash;

3. Har bir ustuvor yo'nalish davlat dasturi asosida ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak;

4. Ustuvor tarmoq va ishlab chiqarishlarga investitsiyalar joylashtirishni rag'batlantirish zarur.

Investitsiya loyihalarini boshqarishda chet el mamlakatlarining tajribasini, xususan, YUNIDO (United Industrial Development Organization) tajribasini hisobga olgan holda amalga oshirish zarur. Bunda loyihaning asosiy g'oyasi va shart-sharoitlari, bozor tahlili va marketing strategiyasi, loyihaning resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, investitsiya ob'ektining joylashish joyi, qurilish maydoni va atrof-muhit, loyihalashtirish va texnologiyalar, korxonani tashkil qilish va ustama xarajatlar, mehnat resurslari, investitsiya loyahasini amalga oshirish jarayonini rejalashtirish, moliyaviy tahlil va investitsiyalarni baholash ishlariga jiddiy e'tibor berish lozim.

Investitsiya loyihalarini ro'yobga chiqarishning jahon tajribasida loyihani amalga oshirish yo'lida yuzaga keladigan, boshqa ko'rinishlar bilan birgalikda bo'lgandagi o'zgartirishlar ko'pincha loyihani omadsiz yakun topishiga yoki bo'lmasa uning umuman amalga oshmasligiga sababchi bo'ladi. Masalan, General accounting office tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra AQShning 940 ta fuqarolik va harbiy loyihalari tahlili shuni ko'rsatadiki, loyihalar bo'yicha o'zgartirishlar, shu bilan birga inflyatsiya, va ish xaqining oshishi loyiha qiymatining o'rtacha 75% ga oshishiga sabab bo'lgan. Hozirda loyihadagi o'zgartirishlarning salbiy natijalaridan biri bitmagan kurilish hajmining o'sishidir. Rossiya Federatsiyasi davlat ko'mitasining statistik ma'lumotiga ko'ra, 1994 yil 275 ob'ektdan davlat federal ehtiyojlari uchun 84 tasi

ekspluatatsiya qilingan, shulardan 45 ob'ektga to'raligicha, qolgan 39 tasiga esa qisman quvvat kiritilishi amalga oshirilgan¹⁸.

Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalari kirib kelishini ta'minlovchi qonunchilik bazasi yaratilgan. Darhaqiqat, har qanday davlat tashqi dunyodan ajralgan holda, jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning etakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini yanada isloh qilish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda investitsiyalarni boshqarishning xalqaro tajribalariga tayanmog'i va undan milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bob bo'yicha qisqa xulosa:

– investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlar majmuiga hamda jamg'arish, investitsiyalash, kapitalizatsiya va foyda olish ko'rinishida harakatlanuvchi faoliyatga investitsiya faoliyati deyiladi. Investitsiya faoliyatining rivojlanishi ishlab chiqarishni kengaytirish siyosatini amalga oshirishga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash va uning sifatini oshirishga, ijtimoiy sohalarni yanada rivojlantirishga, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, korxona ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, asosiy fondlarning jismoniy va ma'naviy eskirishiga yo'l qo'ymaslik, ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasini oshirish, korxonalar mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlash, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqa korxona aktivlariga o'z mablag'larini sarflash asosida foyda olish maqsadlariga erishish imkonini beradi;

– mamlakatimizda investitsiya loyihalarini samarali boshqarish davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsad yo'lida qabul qilingan ko'plab qonun hujjatlarida belgilangan investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish,

¹⁸ Ishmuhamedov A.E., Xaydarov M.T., Muhamedjanova G.Ya. Loyiha boshqaruvi. –T.: “TDIU”, 2005. 111-b.

investitsiyalarni amalga oshirish tartibi, investorlar uchun yaratilgan kafolatlar, imtiyozlar va rag'batlantirish omillari investitsiya loyihalarini samarali boshqarishga ham birday ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

– investitsiya loyihalarini boshqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquqiy hujjat 2011 yil 23 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, shuningdek investitsiya loyihalari yuzasidan tashabbus ko'rsatish va amalga oshirish uchun mas'ul yirik korxonalarning tarkibiy bo'linmalarini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 84-sonli Qarori bo'lib, unda har yil qabul qilinadigan investitsiya hamda mahalliyashtirish dasturlarining o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash, ilg'or texnologiyalarga asoslangan modernizatsiyalash, mahalliyashtirish va mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish loyihalari bo'yicha tashabbus ko'rsatish va ularni amalga oshirish, investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimini yanada takomillashtirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlar, shuningdek, investitsiya loyihalari yuzasidan tashabbus ko'rsatish va amalga oshirish uchun mas'ul yirik korxonalarning tarkibiy bo'linmalarining kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadlari mujassam;

– hozirgi vaqtga kelib rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga investitsiya loyihalarini boshqarish bo'yicha boy tajribalar to'plangan. Mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlarining o'sishi, ishlab chiqarish hajmlarining ortishi, ijtimoiy infratuzilma rivoji va mavjud muammolarni bartaraf etilishi, aynan, investitsiya siyosatining hamda loyihalarning samarali boshqaruviga bog'liqdir;

– keyingi o'n yilliklarda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan Osiyo-Tinch okean mintaqasi davlatlari xorijiy kapitalni o'zlashtirish va boshqarish bo'yicha andozalarni yaratdi. 50-yillarda Yaponiyaning shiddat bilan rivojlanishiga, 60-yillarning oxirida va 70-yillarning boshida Tayvan, Gonkong, Singapur va Janubiy Koreyaning iqtisodiy taraqqiyot sur'atlaridagi keskin

sakrashlarga, 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshida Xitoy iqtisodiyotining yuqori sur'atlar bilan o'sishiga, so'nggi yillarda V'etnam iqtisodiyotining yuksalishiga bir qator omillar, ya'ni ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar, investitsiyalardan samarali foydalanish va uni boshqarish sabab bo'ldi;

– Evropa ittifoqi mamlakatlarida investitsiyalarni boshqarish, asosan, asosiy kapitalni yangilash va modernizatsiyalashga qaratildi. Yaponiyada iqtisodiyotni tiklash ishlab chiqarish tarmoqlari bandligini oshira borish hamda ularni qayta qurishga mablag'lar ajratishni yo'lga qo'yish orqali amalga oshirildi. Xorijiy texnologiyalarni qarzga olish evaziga eskirgan dastgoh va uskunalar ishlab chikarishdan olib tashlandi va shu yo'l bilan ishlab chiqarish tarmoqlari yangilanib, kapital-resurslar jamg'armasiga erishildi. Davlat mamlakatning umumiy taraqqiyotini ta'minlash va uning iqtisodiy hamda ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish uchun ustuvor tarmoq va ishlab chiqarishlarga investitsiyalar joylashni rag'batlantirish va ularni samarali boshqarish siyosatini amalga oshirdi;

– xorij amaliyotidan kelib chiqib, investitsiyalarni boshqarishda quyidagi printsiplarga asoslanish zarur: loyiha mahsulotining mahsuloti (tovar)ning strategik taqdiri, bozorbopligiga katta ahamiyat berish; resurslarning qat'iy cheklanganligi sharoitida yordamni alohida tarmoqlarga emas, balki investitsion ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning eskilaridan voz kechish va yangilariga ega bo'lishga qaratilgan tadbirlarini qo'llab-quvvatlash; har bir ustuvor yo'nalish davlat dasturi asosida ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak; ustuvor tarmoq va ishlab chiqarishlarga investitsiyalar joylashtirishni rag'batlantirish zarur.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH AMALIYOTIINING TAHLILI

2.1. O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyati rivojlanishining amaldagi holatining tahlili


O'zbekiston Respublikasi uchun investitsiyalar, birinchi navbatda, iqtisodiyotni yanada barqarorlashtirish uchun zarurdir. Real investitsiyalarni (bino va inshootlar qurish va modernizatsiya qilish, zamonaviy mashina va asbob-uskunalar sotib olish) jalb qilish iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni olib kelishga yo'naltirilgan investitsiyalar qattiq raqobat sharoitlarida omon qolishga ko'maklashadi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotda faol amalga oshirilayotgan modernizatsiya qilish jarayoni investitsiya faolligini yanada oshirdi. Iqtisodiyotdagi investitsiyalar hajmining yildan-yilga sezilarli ravishda o'sib borishi muqarrar ravishda milliy ishlab chiqarish hajmining o'sishi orqali o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatishiga imkon bermoqda. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini rivojlantirishga berilgan e'tibor va qo'llab-quvvatlash natijasida YaIM hajmi va investitsiyalar miqdori o'sish sur'atlariga ega bo'ldi. Jumladan, 2014 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 108,1 foizga, iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 110,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi (3-jadval). Bu holat investitsiyalarning YaIMdagi salmog'ining o'sishiga olib keldi. Jumladan, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2007 yilda 21,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga kelib bu ko'rsatkich 23,5 foizga ko'tarildi (5-rasm), ya'ni investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2007-2014 yillar oralig'ida 2,4 foiz punktga oshdi.

**O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti va investitsiyalarning
o'sish sur'atlari dinamikasi¹⁹**

Ko'rsatkichlar	Yillar								
	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014
YaIM (mlrd. AQSh dollari)	17,0	22,3	28,1	32,1	38,7	45,9	51,1	56,5	57,7
Investitsiyalar (mlrd. AQSh dollari)	3,3	4,7	6,5	8,2	9,7	10,8	11,7	13,0	14,6

Bu esa mamlakatimizda investitsiya faoliyati taraqqiyotiga davlat tomonidan alohida e'tibor berilayotganini, xorijiy investorlar uchun keng imtiyozlar tizimi yaratilganligini, Investitsiya dasturlarining samarali ijrosining ta'minlanayotganligini ko'rsatadi.



**5-rasm. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi,
foiz hisobida²⁰**

Bir vaqtning o'zida iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, ilg'or texnologiyalarni keng tatbiq etish va shu asosda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlashda Davlat investitsiya dasturining o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi Investitsiya dasturi doirasida kapital qo'yilmalarning asosiy parametrlari tarkibida korxona mablag'lari

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari.

hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar asosiy salmoqni egallaganligini quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin (4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2009-2014 yillardagi Investitsiya dasturida kapital qo'yilmalarning asosiy parametrlari va 2015 yilgi prognoz ko'rsatkichlari, mln. so'mda²¹

Moliyalashtirish manbalari	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil prognoz
Kapital qo'yilmalar, jami	10458864	18220293	20721845	23679701	27123275	33004774	40605781
Shu jumladan:							
1. Markazlashtirilgan investitsiyalar:	2464960	3819784	4696491	5740892	6691366	8548334	8991846
1.1. Byudjet mablag'lari	902710	825000	950000	1059254,4	1300000	1500000	1800000
Shu jumladan:							
- erlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi	82710	92976	105000	115560	131000	156600	181400
1.2. Byudjetdan tashqari jamg'armalar	572021	654930	911834	1431777	1876750	2101366	2316436
Shu jumladan:							
- respublika Yo'l jamg'armasi	241197	540192	609800	680796	921572	976200	1103329
- bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	38800	88272	139930	158147	218243	222300	225530
- maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi (2012 yildan ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi)	292024	26466	162104	545836	623500	729472	944367
- oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish fondi (2012 yildan)	-	-	-	469976	113435	173394	268740
1.3. Tiklanish va taraqqiyot fondi (so'mga ekvivalent hisobida)	305657	1372166	1353527	1432400	1632833	1981958	2002273
1.4. Hukumat kafolati ostida jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar (so'mga ekvivalent hisobida)	684572	874711	1376130	1701901	1750783	2808410	2466207
Shu jumladan, qishloq joylarda uy-joy qurilishi uchun	-	-	171750	301564	250560	231240	
2. Markazlashtirilmagan investitsiyalar:	7993904	14400509	16025354	17938809	20431910	24456440	31613935
2.1. Korxona mablag'lari	4643000	7777700	7536261	6835725	8150655	8556532	11818348
2.2. Tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	560000	1 530 000	2069185	3524824	3236108	4006580	5345600
Shu jumladan, AT «Qishloq-qurilish» bankning qishloq joylarda uy-joy qurilishi uchun mo'ljallangan imtiyozli kreditlari	-	256 300	196289	222070	426300	825800	1101800
2.3. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'mga ekvivalent hisobida)	1 963723	3 876 809	3835109	4340656	4563159	6172998	6564187
2.4. Aholi mablag'lari	827181	1 216 000	2584800	3237604	4481988	5720330	7885800


²¹ Tegishli yillar uchun qabul qilingan davlat Investitsiya dasturlari ma'lumotlari asosida tuzildi.

Bunda jami kapital qo'yilmalar 2015 yilgi prognozni ham qo'shganda 2009 yilga nisbatan 3,9 martaga, markazlashgan investitsiyalar 3,6 martaga, markazlashmagan investitsiyalar esa 4 martaga ortgan. Eng yuqori o'sish sur'atlari tijorat banklari kreditlari 9,5 martaga, aholi mablag'lari ham 9,5 martaga hamda O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari 6,6 martaga ortgan.

Biroq, hukumat kafolati ostida jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar (so'mga ekvivalent hisobida) pasayish tendentsiyasiga ega. Albatta, bunday holat iqtisodiy taraqqiyot nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi hamda mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining o'sish sur'atlarini ifodalaydi.

Xullas, xorijiy investitsiyalarni samarali o'zlashtirish orqali rivojlangan bozor iqtisodiyotini barpo etish bilan bog'liq ko'pgina vazifalarni hal etishga muvaffaq bo'lamiz. Uning amalga oshirilishi birgina qo'shimcha faoliyat va ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishini ta'minlab qolmasdan, balki jamiyat hayotining haqiqiy darajasini ko'rsatib beruvchi aholi turmush farovonligining oshishiga va davlat boyligining ko'payishiga hamda uning iqtisodiy qudratini oshirishga ko'maklashadi.

O'zbekistonning 2015 yilgi Investitsiya dasturi doirasida Iqtisodiyot vazirligi tomonidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan birgalikda Dasturning ma'qullangan asosiy parametrlariga ko'ra kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalarida markazlashgan investitsiyalarning ulushi 22,1 foizni, markazlashmagan investitsiyalar miqdori esa 77,9 foizni tashkil etadi (6-rasm). Bu esa 2015 yilgi Investitsiya dasturi doirasida kapital qo'yilmalarning asosiy parametrlari tarkibida korxona mablag'lari hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar asosiy salmoqni egallaganidan dalolat beradi.



6-rasm. 2015 yilgi Investitsiya dasturida markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar hisobidan moliyalashtirish prognozi²²

Davlat investitsiyalari loyihalarini baholash va tanlash jarayonida har bir loyiha o'ziga xos sifat tomonlari bo'yicha tahlil qilinadi, quyidagi mezonlar asosida reyting baholash o'tkaziladi va ballar qo'yiladi: loyihaning milliy vazifalar va maqsadlarga muvofiqligi; manfaatdor shaxslarda loyihani bajarish uchun malaka va bilimlarning borligi; loyihadan ko'riladigan naflar; loyihaning moliyaviy va iqtisodiy hayotchanligi; loyihaning o'rtacha yillik ekspluatatsiyasi xarajatlari; loyihaning atrof-muhitga va aholini ish bilan ta'minlashga ta'siri.

Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili (5-jadval) shundan dalolat beradiki: jami kapital qo'yilmalar 2014 yilda 2009 yilga nisbatan 2,9 martaga; byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari va boshqa markazlashgan investitsiyalar 3,5 martaga; korxona va aholi mablag'lari, tijorat banklarining kreditlar, xorijiy investtsiya va kreditlar 3,1 martaga ortgan. Natijada mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi ham tegishli ravishda 2,9 martaga ortgan. Bunday holat, birinchidan, mamlakatimizda qulay investitsiya

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 17 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi investitsiya dasturi to'g'risida"gi 2264-sonli Qarorining 1-ilovasi ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

muhitining yaratilganligidan, ikkinchidan, investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashib borayotganligidan, uchinchidan, Investitsiya dasturlarining, shu jumladan, hududiy investitsiya dasturlarining samarali ijrosi ta'minlanayotganligidan va uning monitoringi samarali tashkil etilganligidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, markazlashgan investitsiyalardan foydalanish samaradorligining nisbatan pastligi ularga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Byudjet investitsiyalaridan ishlab chiqarish sohasida faqat davlat korxonalari foydalanmoqda.

5-jadval

Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili²³


№	Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, marta
1	Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so'm	49375,6	62388,3	78764,2	97929,3	118986,9	144867,9	2,9
2	Kapital qo'yilmalar – jami, mlrd. so'm	10458,8	18220,2	20721,8	23679,7	27123,2	33004,7	3,2
3	Markazlashgan investitsiyalar, mlrd. so'm	2464,9	3819,7	4696,4	5740,8	6691,3	8548,3	3,5
4	Markazlashmagan investitsiyalar, mlrd. so'm	7993,9	14400,5	16025,3	17938,8	20431,9	24456,4	3,1
5	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	7067,4	8245,8	9504,8	11753,9	15219,3	19779,3	2,8
6	Jami investitsiyalar, mlrd.AQSh dollari hisobida	8,2	9,7	10,8	11,7	13,0	14,6	1,8
7	Xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. AQSh dollari hisobida	2,9	2,8	2,5	2,6	3,0	3,1	1,1
8	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. AQSh dollari hisobida	2,5	2,4	2,0	2,0	2,2	2,3	0,9

²³ www.cbu.uz.; www.stat.uz.; www.mineconomy.uz. sayti ma'lumotlari.

Hozirgi paytda ishlab chiqarish samaradorligining pastligi tufayli bunday korxonalarni davlat hokimiyati idoralari tomonidan xususiylashtirish yoki yangicha huquqiy asoslarda qayta tashkil qilish orqali ularning miqdorini qisqartirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Markazlashgan investitsiyalar hajmini oshirish ular samaradorligini oshirish masalasini hal qilmaydi. Buning uchun byudjet-moliya tizimida chuqur islohotlarni amalga oshirmoq lozim. Davlat miqyosida barcha darajadagi byudjetdan tashqari fondlarning yo'q qilinishi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi investitsiya sifatida yo'llanayotgan byudjet mablag'larini nazorat qilish imkoniyatini yaxshilaydi. Byudjetni ijro etish g'aznachilik tizimining joriy etilishi ham byudjet mablag'larining ishlatilishi ustidan nazoratni kuchaytirdi, biroq u ham muammoni to'raligicha hal qilmaydi.

O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 2014 yilgi Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan 50 dan ortiq loyihani amalga oshirish uchun 675,0 mln AQSh dollari miqdorida mablag' ajratadi (7-rasm).



7-rasm. Investitsiya dasturi doirasida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining tarmoqlar bo'yicha yo'naltirilishi (2015 yilning 1 yanvar holatiga)²⁴

²⁴ www.ufrd.uz; UzDaily saytlari ma'lumotlari.

Ushbu mablag'lar energetika, neft va gaz, kimyo, transport, turizm va boshqa sohalardagi loyihalar uchun yo'naltirildi. 2014 yilda Jamg'arma eng ko'p miqdoridagi kredit mablag'larni yoqilg'i-energetika, kimyo, neft va gaz hamda metallurgiya sohasidagi loyihalar uchun ajratdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi "Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 395-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risida"gi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi munosabat bilan Moliya vazirligi Investitsiya dasturiga asosan byudjet mablag'lari hisobidan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish tartibi, g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati va moliya organlariga taqdim etiladigan hisobot shakllari belgilab olindi. Unga muvofiq hujjatlar asosida moliya boshqarmalari buyurtmachilarning mablag'larini oylik taqsimotini tuzadi va tasdiqlaydi.

Qurilish-montaj ishlarining birinchi ikki oyi mobaynida joriy yildagi ishlar qiymatining 30 foizi miqdorida avans to'lovlari ajratiladi, joriy moliyalashtirish har oyda bajarilgan ishga nisbatan ajratilgan avansni mutanosib tarzda ushlab qolinishini hisobga olgan holda bajarilgan ishlar qiymatining 95 foizi miqdorida amalga oshiriladi.

Joriy moliyalashtirishda ajratilgan avans va kafolat muddati tamom bo'lgandan keyin qolgan 5 foiz miqdorida to'lanadigan mablag'lar mutanosib ravishda bajarilgan qurilish-montaj ishlari hisobidan quyidagi formula asosida ushlab qolinadi:


$$JOMST = HDBIQ - (XDBIQ * 30/100 + XDBIQ * 5/100 + HDJMS)$$

Bunda, JOMST – joriy oyda moliyalashtirish summasiga talab; HDBIQ – hisobot davrida bajarilgan ishlar qiymati; HDJMS- hisobot davrida joriy moliyalashtirilgan summa; 30 – ajratilgan avansning foiz miqdori; 5 – kafolat muddati tamom bo'lgandan keyin to'lanadigan mablag'larning foiz miqdori.

Investitsiya dasturida ko'zda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirishni tashkil qilish hamda kapital qo'yilmalar hisobidan

ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash uchun hududiy moliya boshqarmalariga: moliyalashtirishni buyurtmachi tomonidan tegishli zarur hujjatlar taqdim qilingandan keyin ochish; investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlarda amalga oshiriladigan qurilish-tiklash ishlarini o'rnatilgan tartibda qat'iy tasdiqlangan limitlar doirasida moliyalashtirish; Moliya vazirligiga oylik hisobotlarni (barcha viloyatlar bo'yicha) va moliyalashtirishga bo'lgan talabnomalarni (respublika byudjetidan maqsadli subventsiyalar shaklida moliyalashtiriladigan viloyatlar bo'yicha) hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechikmay, moliyalashtirilgan kapital qo'yilmalar va ularni kassa ijrosi to'g'risidagi oylik, choraklik va yillik hisobotlarni belgilangan muddatlarda taqdim qilish yuklatiladi.

2009-2014 yillarda Investitsiya dasturi doirasida asosiy kapitalni moliyalashtirishda tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz mablag'lari dinamikasi o'sish sur'atlariga ega (8-rasm).



8-rasm. 2009-2014 yillarda Davlat investitsiya dasturi doirasida asosiy kapitalni moliyalashtirishga jalb qilingan tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, mln. so'mda²⁵

²⁵ Tegishli yillardagi Davlat investitsiya dasturlaridagi ma'lumotlar asosida tuzildi.

Xususan, 2014 yilda ushbu maqsadlarga ajratilgan jami kreditlar 4006580 mln. so'mni tashkil qilib, 2009 yilga nisbatan 7,1 martaga ortgan. Bu esa mamlakatimiz tijorat banklarining Investitsiya dasturini amalga oshirishdagi faol ishtirokini ko'rsatadi.

Investitsiyalarni davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish "Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi hamda "Markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida amalga oshirilmoqda²⁶. Ob'ektni foydalanishga tayyor holda qurilishini amalga oshirish markazlashtirilgan manbalar hisobidan amalga oshiriladigan yangi qurilishda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonani kengaytirish, rekonstruktsiya qilish va texnik jihatidan qayta qurollantirishda majburiy hisoblanadi. Kreditlash, tanlovli savdolar g'olibi bo'lgan, ob'ektni foydalanishga tayyor holda qurilishini amalga oshirish markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiradigan, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining "Ob'ektlarni davlat mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi 1999 yil 20 dekabrda 532-son qaroriga muvofiq sug'urta kompaniyalari bilan qurilish ob'ektini sug'urtalash uchun shartnoma tuzgan pudrat qurilish tashkilotlariga nisbatan amalga oshiriladi.

Ob'ektni foydalanishga tayyor holda qurish pudratchining loyihada nazarda tutilgan ishlarning butun hajmini, shu jumladan, maxsus va ishga tushirish-sozlash ishlarini bajarish, ob'ektni texnologiya va muhandislik asbob-uskunalari bilan butlash bo'yicha majburiyatlarini nazarda tutadi hamda tayyor qurilish mahsuloti yaratishning yagona uzluksiz kompleks jarayoni sifatida amalga oshiriladi. Ob'ektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda buyurtmachi va pudratchi qatnashchilar hisoblanadi.

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi 110-son qaroriga 1-ilova "Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrda "Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 395-sonli Qarorining 2-ilovasi "Markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining izchil va barqaror o'sib borayotgani e'tiborga sazovordir. Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida 2011-2014 yillarda o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Jumladan, "Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston" qo'shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo'yicha uchta loyiha amalga oshirildi. Shular qatorida "Zenit elektroniks" qo'shma korxonasida "Samsung" kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ayni paytda maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, elektr pilesoslar va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar sho'ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadida propan-butan aralashmasi qurilmasining birinchi navbatini, Samarqand viloyatida "MAN" yuk tashish mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmuaning dilerlik markazini bunyod etish ishlari yakuniga etkazildi. Shu bilan birga, Toshkent va Namangan viloyatlarida zamonaviy to'qimachilik komplekslari, Jizzax va Xorazm viloyatlarida yigiruv va to'quv, Samarqand viloyatida sport poyabzallari ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi. Oziq-ovqat sanoati bo'yicha 21 ta korxonada ishlab chiqarish modernizatsiya qilindi va texnik qayta jihozlandi. Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasini barpo etish, O'zbekiston-Xitoy gaz quvurining uchinchi yo'nalishi kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda qurilish-montaj ishlari qizg'in pallaga kirdi.

Mamlakatimizda qayta ishlash tarmoqlaridan sanoat va qishloq xo'jaligi sohasini tahlil qiladigan bo'lsak, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 2007 iyilga nisbatan 4,1 martaga, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish esa 4 martaga ortgan (6-jadval).

6-jadval

**Mamlakat yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat va qishloq xo'jaligi
mahsuloti ishlab chiqarish hajmlari**

№	Ko'rsatkichlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	O'zgarishi
1	Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so'm	28190,0	38969,8	49375,6	62388,3	78764,2	97929,3	118986,9	144867,9	5,1 marta
2	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish, mlrd. so'm	18447,6	23848,0	28387,3	34499,1	42158,8	51059,3	64354,7	75193,5	4,1 marta
3	Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish, mlrd. so'm	9304,9	11310,7	13628,6	16774,7	21422,3	27164,2	30849,4	36957,0	4,0 marta
4	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, % da	65,4	61,2	57,5	55,3	53,5	52,1	54,1	51,9	-13,5 f.p.
5	Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, % da	33,0	29,0	27,6	26,9	27,2	27,7	25,9	25,5	-7,5 f.p.

Biroq, sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2014 yilda 2007 yilga nisbatan 13,5 f.p.ga, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 7,5 f.p.ga kamaygan. Bunday holat yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlaridan yuqori ekanligini ko'rsatadi va ijobiy holat hisoblanadi.

2.2. Loyiha tsiklining turli bosqichlarida investitsiyalarni boshqarish amaliyotining tahlili

Ma'lumki, investitsiya loyihalarini boshqarish loyiha tsiklining har bir bosqichida amalga oshiriladi. Loyihani amalga oshirishning boshlanishini va uning tugatilishi orasidagi davr loyiha tsiklini anglatadi²⁷. Loyiha yuzaga kelgan vaqtdan toki u tugatilgunga qadar o'tgan vaqt oralig'iga loyihaning hayotlik

²⁷ Максимова В.Ф. Инвестиционный менеджмент: Учебно-практическое пособие. – М.: «ЕАОИ», 2007. – Стр. 125.

davri, loyiha bosib o'tishi lozim bo'lgan holatlarga esa fazalar, bosqichlar deyiladi. Loyihalar hayotlik davri, tsiklining quyidagi bosqichlari farqlanadi²⁸:

1. Investitsiya oldi bosqichi: a) investitsiya imkoniyatlarining tahlili; b) dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash; v) texnik-iqtisodiy asoslash va b.

2. Investitsiya bosqichi: a) muzokaralar olib borish va shartnomalar tuzish; b) loyihalashtirish; v) qurilish (qurilish ishlarini amalga oshirish); g)marketing; d) xodimlarni o'qitish va b.

3. Ekspluatatsiya bosqichi: a) qabul qilish va ishga tushirish; b) uskunalarni almashtirish (yangilash); v) kengaytirish, innovatsiya va b.

4. Likvidatsiya bosqichi: a) korxonaning kreditorlar oldidagi qarzlarini aniqlash; b) korxona aktivlarini baholash; v) korxonaning aktivlari hisobidan davlat, kreditorlar va xodimlar oldidagi qarz majburiyatlarini ta'minlash; g) korxonani yopish va tugallash va b.

1. Investitsiya loyihalarini boshqarishda investitsiya oldi fazasi muhim hisoblanadi (investitsiya loyihalarining har jihatdan samaradorligini ta'minlashda esa investitsiya oldi tadqiqotlari bosqichi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi). Chunki loyihani boshqarish loyiha ishlab chiqilishidan boshlanadi. Ushbu fazada loyiha ishlab chiqiladi, uning imkoniyatlari o'rganiladi, dastlabki texnik-iqtisodiy tadqiqot va kuzatishlar o'tkaziladi, potentsial investor va loyihaning boshqa ishtirokchilari bilan muzokaralar olib boriladi, xom ashyo va uskunalarni etkazib beruvchilari tanlanadi. Agar investitsion loyihaga kredit jalb qilish ko'zda tutilgan bo'lsa, unda bu fazada kreditni olish bo'yicha bitimlar tuziladi; investitsion loyiha yuridik jihatdan rasmiylashtiriladi; hujjatlarni tayyorlash, shartnomalarni rasmiylashtirish va korxonani ro'yxatga olish amalga oshiriladi. Loyihaning investitsiya oldi fazasini quyidagi 7-jadval orqali ifodalaymiz:

Loyihaning investitsiya oldi fazasida bo'lg'usi loyihalashtirish ob'ekting imkoniyatlari o'rganiladi. Loyihaning bu hayotiy bosqich tsiklida uning hayotga

²⁸ Максимова В.Ф. Инвестиционный менеджмент: Учебно-практическое пособие. – М.: «ЕАОИ», 2007. – Стр. 126.

mos qobilligi va jalb etuvchanligiga asos yaratiladi. Investitsiya oldi fazasi loyihaning to'liq xarakteristikasini berishi shart. Ba'zi hollarda investitsiya loyihasining bu hayotiy tsikl bosqichining davomiyligini aniqlash juda qiyin kechadi. Dastlabki bosqichda investitsion loyihaning texnik-iqtisodiy asosnomasi ishlab chiqiladi, uni moliyaviy-iqtisodiy baholash ishlari amalga oshiriladi, investitsiyani amalga oshirish uchun imkoniyatlar tahlil qilinadi hamda loyihani amalga oshiruvchi korxonaning moliyaviy holati baholanadi. So'ngra kapital qo'yilmalar va investitsiyalash amalga oshiriladi, shartnomalar tuziladi, loyiha bo'yicha qurilish ishlari olib boriladi, uskunalar sotib olinadi va ishlab chiqarishga tayyorlash ishlari o'tkaziladi. Loyihaviy moliyalashtirishning oxirgi bosqichida loyiha quvvati ishga tushiriladi va mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqariladi.

7-jadval

Loyihaning investitsiya oldi fazasi

Investitsiya oldi fazasi		
1	2	3
Loyihani amalga oshirish imkoniyatlarining tahlili	Loyihani asoslashning tayyorgarlik bosqichi	Loyihani baholash va investitsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish
Investitsiyalash uchun kerak bo'ladigan mablag'lar hajmi va salohiyatli (potentsial) investorlar	Loyihani mavjud muqobillar bilan solishtirgandagi dastlabki asoslash	Yakuniy qaror sifatida loyihani ijtimoiy-iqtisodiy baholash
Loyihani amalga oshirishning ichki va tashqi shart-sharoitlari baholash	Qo'shimcha (funktional) izlanishlar	Investitsiyalashning salohiyatli manbalarini aniqlash
Loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini makro va mikroiqtisodiy darajada tahlil qilish	Loyihani texnik iqtisodiy asoslash	Investitsiyalashning tadbirlarining ishlab chiqish
	Loyihani amalga oshirishga kelishish va tasdiqlash (ishchi hujjatlar)	

Jahon amaliyotida investitsiya oldi fazasining quyidagi bosqichlari mavjud:

– investitsiya g'oyalarining shakllanishi, ya'ni g'oyani tanlash va dastlabki asoslash yoki dastlabki investitsiya kontsentsiyasini shakllantirish (opportunity studies);

– investitsiya imkoniyatlarini izlash, ya’ni ishlab chiqariladigan mahsulotga talabni o’rganish, loyihaning qiymati va uning samarasini aniqlash (pre – feasibility studies);


– loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishi yoki uning texnik-iqtisodiy va moliyaviy maqbulligini baholash (feasibility studies);

– baholovchi xulosani tayyorlash va investitsiyalash uchun qaror qabul qilish (final evaluation).

Investitsiya oldi fazasida loyihalarni boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat bo’ladi:

- investitsiya imkoniyatlarini aniqlash;
- muqobil loyihalarni va uning turli variantlarini tahlil qilish;
- rejalashtirish;
- nazorat;
- tartibga solish.

Investitsiya oldi fazasida loyihalarni boshqarish tsiklini quyidagicha ifodalash mumkin:



9-rasm. Investitsiya oldi fazasida loyihani boshqarish tsikllari²⁹

Shunday qilib, investitsiya imkoniyatlarini o’rganish va tadqiq qilish loyiha hayotiyligining alomatlarini aniqlasagina, investitsiyalarning samaradorligini baholash, uni ekspertizadan o’tkazish ishlari boshlanadi.

Investitsion qarorlar investitsiya loyihalarining umumiy amalga oshishi bilan bog’liq bo’lgan quyidagi mezonlarga asoslanadi:

– ijtimoiy-iqtisodiy muhitga taalluqli loyihaning asosiy (korporativ) maqsadi bilan rivojlantirish maqsadlari o’rtasida hozirgi va keyingi davr mobaynida qandaydir bo’lishi mumkin bo’lgan qarama-qarshilik mavjudmi?

²⁹ Станиславчик Е.Н. Бизнес-план. Управление инвестиционными проектами. – М.: «Ось-86», 2009. – С. 28.

– loyihaning maqsadiga erishish uchun taklif qilingan loyiha va marketing strategiyalari qanchalik muhimligi, nima uchun taklif qilingan strategiya tanlandi, muqobil strategiyalar ham e'tiborga olinganmi?

– loyiha iqtisodiy resurslarni samarali ishlata oladimi, loyiha uchun talab qilinadigan asosiy resurslarni ishlatishning eng yaxshi variantlari bormi?

– loyihalashtirilayotgan barcha investitsion ishlab chiqarish va marketing xarajatlari ishonchlilik darajasidami va muvofiq keladigan chegaraga egami?

– loyiha hayotiyligining har qanday davrida to'lanadigan moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun milliy va xorijiy valyuta bilan etarlicha ta'minlanganmi – barcha investitsiya xarajatlari kapitalning mavjudligi bilan aniqlanuvchi moliyaviy chegaralarda yotadimi?

– jamg'arilgan har yillik va diskontlashtirilgan foyda gorizont rejalashtirishga loyiha tarkibi va ma'lumotlarni baholashdagi xatolarga, inflyatsiyaga, narxlarning nisbiy o'zgarishiga, shuningdek, ishga aloqador muhitning o'zgarishiga (raqobatchilar, iste'molchilar, bozor, mol etkazib beruvchilar va jamoat siyosatiga) qanchalik sezgir, real pul kirim-chiqimlari va tegishli sof foyda tarkibi investorlar va moliyachilarning ko'zlagan maqsadlari minimal talablariga mos keladimi?

– risklar mavjud sharoitda ularni nazorat qilish yoki boshqarish uchun qanday strategiya amal qiladi?

Investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilish uchun o'rganilayotgan ma'lumotlar majmuasi quyidagilardan tashkil topgan bo'lishi lozim: loyiha maqsadlari, uning mo'ljali, iqtisodiy muhit; marketing ma'lumotlari (sotish, raqobat muhiti, sotish dasturi va narx siyosati); moddiy xarajatlar; mehnat, ob-havo, ijtimoiy va boshqa omillarni hisobga olgan holda korxonaning joylashuv joyi; qurilish ishlari to'g'risida ma'lumot; ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish; kadrlar masalasi; loyihani tashkil qilish jadvali; loyihani amalga oshirish davri bo'yicha moliyalashtirish hajmi; loyiha samaradorligini baholash.

Loyihaning iqtisodiy hayotiy davrini aniqlashda turli xil omillarni baholashga to'g'ri keladi, bular quyidagilardir:

- talabning davomiyligi;
- xom ashyoni saqlash va etkazib berishning davomiyligi;
- texnik yuksalish darajalari;
- bino va uskunalardan foydalanishning davomiyligi;
- muqobil investitsiyalash imkoniyatlari;
- boshqaruvdagi chegaralanishlar.

Shu narsa ravshanki, loyihaning iqtisodiy hayoti hech qachon uning texnik yoki yuridik hayotidan ko'p bo'lmaydi, u bundan kam bo'lishi lozim yoki unga teng bo'lishi kerak.

Loyihani rejalashtirishda faqat uning iqtisodiy hayoti ahamiyatli hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini baholash jarayonida gorizont rejalashtirish bilan loyiha hayotiyli o'rtasidagi aloqadorlik, albatta, hisobga olinishi lozim.

Dissertatsiyada “Tekman-Uz” xususiy korxonasi tomonidan tikuvchilik va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish va binoni ta'mirlash maqsadida ishlab chiqilgan loyiha tahlil qilindi. Loyihani ishlab chiqish va uni amalga oshirishga mamlakatimizda kichik biznesni davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlanishi turtki bo'ldi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida kichik biznesning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda kichik biznes o'zining iqtisodiyotdagi o'ta muhim va salmoqli hissasi, o'rni va ahamiyati bilan iqtisodiyot taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarni shakllantirishda, ijtimoiy va bandlik muammolarini hal etishda, aholi daromadlarini oshirishda, ilmiy-texnikaviy yutuqlarni amaliyotda keng qo'llashda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, mamlakatning ilmiy-texnik va innovatsion ildamligi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi va hal etuvchi omilidir. So'nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan Prezidentimizning maxsus Farmonlari qabul qilinmoqda. Bu esa “Tekman-Uz” korxonasi uchun ushbu loyihani amalga oshirishda katta moliyaviy imkoniyatlarni yaratib beradi.

Ushbu korxona Toshkent shahri Shayxontoxur tumani Uyg'ur ko'chasida joylashgan. Korxona 1998 yil 26 noyabrda Toshkent shahar Shayxontoxur tuman xokimiyati tomonidan ro'yxatga olingan. Korxonaning mulkchilik shakli – xususiydir. Ushbu korxonaning ta'sischisi Aripova Zumrat Ibragimovna hisoblanadi. Mazkur korxona respublika qonunchiligiga ko'ra yuridik shaxs hisoblanadi va o'zining mustaqil balansiga va bankdagi hisob-raqamiga ega.

“Tekman-Uz” xususiy korxonasining asosiy faoliyat turlari quyidagilardan iborat: tikuvchilik va to'qimachilik buyumlarini tayyorlash; vositachilik faoliyati (tijorat bitimlari, ulgurji va chakana savdo va boshq.); respublika qonunchilik hujjatlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat turlari.

Loyihaning maqsadi tikuvchilik va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish hisoblanadi. Bu esa import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga ushbu loyihaning amalga oshirilishi yangi ish o'rinlarini tashkil qilish imkonini beradi. Bu esa hududdagi aholi bandligini ta'minlaydi. Shuningdek, loyihaning realizatsiyasi yangi texnologiyalarni ishga tushirish orqali sifatli va raqobatbardosh tikuvchilik va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga imkon beradi. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar ushbu mahsulot turiga qo'yilgan talablarga to'la javob beradi.

Loyihaning umumiy qiymati va moliyalashtirish rejasi quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

8-jadval

“Tekman-Uz” investitsiya loyihasining umumiy qiymati va moliyalashtirish rejasi³⁰

Moliyalashtirish manbalari	Jami	Foizda
“Tekman-Uz” xususiy korxonasining o'z mablag'lari (bino va inshootlar)	138949000	66%
Davlat tijorat Xalq bankining qarz mablag'lari (uskuna va texnologiya)	70000000	34%
Jami moliyalashtirish summasi va loyihaning umumiy qiymati	208949000	100%

³⁰ “Tekman-Uz” investitsiya loyihasining biznes-rejasi ma'lumotlari.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, loyihaning umumiy qiymati 208,9 mln so'mni tashkil qiladi. Uning 66 foizi yoki 138,9 mln so'mi "Tekman-Uz" xususiy korxonasining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bunda korxonaning bino va inshootlari, transport vositalari, loyihani ishga tushirishgacha bo'lgan xarajatlar, ma'muriy xarajatlar va boshqalar o'z mablag'i sifatida ishtirok etadi.

"Tekman-Uz" xususiy korxonasi tomonidan tikuvchilik va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: yuqori sifatli tikuvchilik va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish; yangi ish o'rinlarini yaratish; ushbu mahsulot turiga iste'molchilarning bo'lgan talabini qondirish; eksportga mo'ljallangan yoki import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish; loyihaning o'z-o'zini qoplashi va boshqa afzalliklar.

"Tekman-Uz" investitsiya loyihasining moliyalashtirish shartlari quyidagicha: qarz mablag'ining umumiy summasi – 70000000 so'm; kreditning muddati – 36 oy yoki uch yil; kredit uchun belgilangan bank foiz stavkasi yillik 18 %; kredit bo'yicha imtiyozli davr – 6 oy.

"Tekman-Uz" loyihasining pul oqimlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

9-jadval

"Tekman-Uz" investitsiya loyihasi bo'yicha pul oqimi tahlili³¹

Ko'rsatkichlar	1-chi yarim yillik	2-chi yarim yillik	1-chi yarim yillik	2-chi yarim yillik	1-chi yarim yillik	2-chi yarim yillik
Pul kirimi	437500000	437500000	437500000	437500000	437500000	437500000
Sotishdan tushgan tushum	437500000	437500000	437500000	437500000	437500000	437500000
Pul chiqimi	230425000	243958331	242838332	241718332	240598332	239478342
Ishlab chiqarish xarajatlari	203825000	203825000	203825000	203825000	203825000	203825000
Operatsion xarajatlari (amortizatsiya ajratmalarisiz)	21000000	21000000	21000000	21000000	21000000	21000000
Davr xarajatlari	21000000	21000000	21000000	21000000	21000000	21000000
Moliyaviy xarajatlari	5600000	19133331	18013332	16893332	15773332	14653342
Foiz to'lovlari	5600000	5133333	4013334	2893334	1773334	653334
Asosiy qarz to'lovlari	0	13999998	13999998	13999998	13999998	14000008
Sof pul oqimi	207075000	193541669	194661668	198781668	196901668	198021658

³¹ "Tekman-Uz" investitsiya loyihasining biznes-rejasi ma'lumotlari.

Ushbu jadval ma'lumotlari asosida "Tekman-Uz" investitsiya loyihasining yillar bo'yicha sof pul oqimini aniqlaymiz. Buning uchun 1-chi va 2-chi yarim yillikdagi pul tushumlarini qo'shib chiqamiz, undan 1-chi va 2-chi yarim yillikdagi pul chiqimlarini ayirib olamiz. Unga ko'ra "Tekman-Uz" investitsiya loyihasi bo'yicha pul oqimi 1-chi yili 400,6 mln so'mni, 2-chi yili esa 393,4 mln so'mni va 3-chi yili 394,9 mln so'mni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, "Tekman-Uz" xususiy korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha ko'rsatkichlari ijobiy tavsifga ega. Jumladan, loyiha jami daromadlari 2625,0 mln so'mni, xarajatlari 1439,0 mln so'mni, kreditning foizi 20,0 mln so'mni va kreditning asosiy summasi 70 mln so'mni tashkil etayapti. Bunda loyiha bo'yicha jami daromadlardan jami xarajatlarni ayirib tashlaganda loyihaning sof foydasi 1185,9 mln so'mni tashkil etadi. Bu esa ushbu loyihaning samaradorligini va rentabelligini ko'rsatib beradi. Buni quyidagi hisob-kitoblar orqali aniqlaymiz:

$$NPV = \frac{400616669}{(1+0,18)^1} + \frac{393443336}{(1+0,18)^2} + \frac{394923326}{(1+0,18)^3} - 208949000 =$$

$$(339505651,7 + 282564877,9 + 240362528,5) - 208949000 =$$

$$= 862433058,1 - 208949000 = 653,4 \text{ mln. so'm}$$

Demak, ushbu loyihaning sof joriy qiymati (NPV) = 653,4 mln. so'mni tashkil qiladi.

$$PI = \frac{400616669}{(1+0,18)^1} + \frac{393443336}{(1+0,18)^2} + \frac{394923326}{(1+0,18)^3} / 208949000 =$$

$$(339505651,7 + 282564877,9 + 240362528,5) / 208949000 =$$

$$= 862433058,1 / 208949000 = 4,1.$$

Demak, ushbu loyiha investitsiyalar rentabelligi (PI) = 4,1 tashkil qiladi.


Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, loyihaning moliyaviy samaradorligini aniqlashda qo'llaniluvchi sof joriy qiymat (NPV) va investitsiyalarning rentabelligi (PI) ijobiy natijaga ega, ya'ni $NPV > 0$ va $PI > 1$. Bunday holat loyihani amalga oshirish mumkinligini, uning samaradorligini ko'rsatadi.

2. Investitsiya loyihalarni boshqarishda investitsiya bosqichi ham investitsiya oldi bosqichidan kam ahamiyat kasb etmaydi. Bu bosqichda investorlarga investitsiyalsh hajmi va muddatlarini aniqlash imkonini beruvchi strategik rejali qarorlarni, shuningdek, loyihani moliyalashtirishning optimal rejasini ishlab chiqish amalga oshiriladi. (loyihalashtirish pudrat asosida qurilish-montaj ishlarini olib borish uchun shartnomalar imzolash va qurilish-montaj ishlarini olib borish, kapital qo'yimalarni amalga oshirish).

Investitsiya fazasi bevosita investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liqdir. Bu bosqichda mablag'larning ma'lum bir qismi riskka duchor bo'ladi. Ushbu faza quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- loyiha rejasi va holatining tahlili;
- loyihani amalga oshirishni rejalashtirish;
- loyiha ko'rsatkichlaridagi farqlarni nazorat qilish;
- tartibga solish.

Investitsiya fazasida loyihalarni boshqarish tsiklini quyidagicha ifodalash mumkin:



10-rasm. Investitsiya fazasida loyihani boshqarish tsikllari³²

Bu erda har bir holat o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

3. Ishlab chiqarish (operatsion) fazasi (korxona xo'jalik faoliyatining yuritilishi). Bunda xom ashyo va materiallar sotib olish, ishlab chiqarishni

³² Станиславчик Е.Н. Бизнес-план. Управление инвестиционными проектами. – М.: «Ось-86», 2009. – С. 32.

amalga oshirish, mahsulotni bozorga olib chiqish, marketing izlanishlarini olib borish, raqobatchi, iste'molchilar tarkibi va munosabatlarining o'zgarishi omillarini o'rganish, yangi bozorlarni kashf etish, reklama vositalarini kuchaytirish tadbirlari kabilar amalga oshiriladi (yangi mahsulot, to'lov qobiliyati, sifat va baho o'zgarishi, korxona imidji, korxona mahsulotlari qalbakiligi to'g'risida axborot va boshq.).

Bu bosqichda hamkorlar bilan bevosita va o'zaro hisoblashish amaliyoti yuz beradi va shunga bog'liq holda ishlab chiqarish tashkil etiladi va uning natijalariga ta'sir ko'rsatiladi (jumladan, mol etkazib beruvchilar, pudratchilar, xaridorlar, vositachilar, davlat, ta'sischi, tijorat banklari, sug'urta kompaniyasi va shu kabilar bilan). Buning oqibatida mazkur investitsiya loyihasining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholash imkonini beruvchi pul oqimi va uning harakati yuzaga keladi.

4. Likvidatsiya bosqichi. Bu bosqichda investorlar va ob'ektdan foydalanuvchilar asosiy vositalarning amortizatsiyasi bilan birgalikdagi qiymatini aniqlaydi, uning mumkin bo'lgan bozor qiymatini baholaydi, ularni sotish yoki hisobdan chiqarish asoslarini o'rganib chiqadi.

Likvidatsiyaning kelib chiqishiga investor rejasining o'zgarishi, loyihani amalga oshirishda mablag'larning etishmasligi yoki maqsadsiz ishlatilishi, hisob-kitoblarning noto'g'ri olib borilganligi va unda yo'l qo'yilgan xatolar, boshqa muqobil loyihalarning paydo bo'lishi kabi omillar sabab bo'lishi mumkin.

Investitsiyalashdan oldingi va investitsiya bosqichi investitsion loyihalashtirishga, ishlab chiqarish bosqichi esa maxsus tashkiliy tartib qoidalariga (ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish, rejalashtirish, moliyalashtirish, tahlil, menejment va boshqalar) taalluqlidir.

Sanoatga taalluqli bo'lgan investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish yuqorida ta'kidlab o'tilgan uchta bosqichdan iborat jarayon tariqasida taqdim etilishi mumkin. Ularning har biri maslahat berish, loyihalashtirish, ishlab chiqarish kabi faoliyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

Investitsiya loyihalarini samarali boshqarishda marketing ham muhim o'rin tutadi. Chunki loyiha mahsulotining xaridorgirligi, o'z navbatida, loyihaning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va aksincha. Loyiha mahsulotining bozordagi talab va taklifga qarab loyihani boshqarish usullari tanlanadi. Bunda marketing tadqiqotlari yo'nalishlarini tasniflab olish muhim ahamiyatga ega:

10-jadval

Marketing tadqiqotlarining yo'nalishlari tasnifi


Tadqiqotlarni turkumlash belgilari	Tadqiqotlarning yo'nalishlari va ularni amalga oshirish xususiyatlari
Tadqiqot maqsadlariga ko'ra	Axtarish, tavsiflash, eksperiment o'tkazish yuzasidan tadqiqotlar
Bozordagi tadqiqotlarni amalga oshirish ko'lamiga ko'ra	Mahalliy, milliy, xalqaro miqyosida
Tadqiqotlarni amalga oshiruvchi sub'ektlar ishtirokiga ko'ra	Bevosita firma ishtirokida, marketing vositachisi ishtirokida, tanlangan maxsus ishtirokchilar vositasida
Tadqiqotlarni o'tkazish davriyligiga ko'ra	Bir marotabali, mavsumiy, favqulodda va boshqa jihatdagi tadqiqotlar

Shu sababdan marketing tadqiqotlarini uyushtirish bozorning rivojlanish holati, raqobatning jadalligi, firmalarning ushbu bozorlarda faoliyat yuritish maqsadlari va vazifalari inobatga olinishi zaruriy ahamiyat kasb etadi. Investitsiya loyihalarini boshqarishda investitsiyaviy marketing foyda olish maqsadida investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash, bozor holatini tahlil etishdir³³.

Marketing tadqiqotlari yo'nalishlarini belgilashda tegishli firmaning bozorda faoliyat yuritish o'ri, vazifalarini inobatga olish lozim. Marketing tadqiqotini amalga oshirishda izlanish muammosi bilan uning maqsadlari o'rtasida tafovut (farqlanish) mavjudligiga etarlicha e'tibor berilmaydi. Buning oqibatida keyingi bosqichlarda sezilarli xatolarga yo'l quyiladi. Shu sababdan to'g'ri va aniq belgilangan muammo, tayinli maqsadga erishish uchun puxta zamin yaratadi.

³³ Максимова В.Ф. Инвестиционный менеджмент: Учебно-практическое пособие. – М.: «ЕАОИ», 2007. – Стр. 121.


Investitsiya loyihalarini samarali boshqarish loyiha bo'yicha risklarni baholash va boshqarishga ham bog'liqdir. Risklarni aniqlash va boshqarish uchun uni keltirib chiqaruvchi tashqi omillarni (moddiy resurslarga bo'lgan narxning tebranishi, iqtisodiy o'sish va kelgusida mahsulotga bo'lgan talabning o'sishi, inflyatsiya, bank foiz stavkasining o'zgarishi, texnologiyaning rivojlanishi, siyosiy holat, iqtisodiy siyosat, shu jumladan, soliq siyosati, ekologik qonunchilik, tabiiy omillar va boshq.) hamda ichki omillarni (loyihalashtirilayotgan ob'ektning qurilish grafigi, joriy va ekspluatatsion xarajatlar, ishlab chiqarish quvvatlarining o'zlashtirilishi va boshq.) inobatga olish lozim bo'ladi. Risklarni baholash va boshqarishning tashkiliy jarayonlarini 11-rasm orqali ifodalaymiz:



11-rasm. Loyiha risklarini baholash va boshqarishning tashkiliy jarayonlari³⁴

³⁴ Nosirov E.I., Mamatov B.S., Shoislomova N.Q., Sharifxodjaeva K.U. Investitsiya risklarini boshqarish. O'quv qo'llanma. / i.f.d., professor A.V.Vahobovning umumiy tahriri ostida. – T.: "Fan va texnologiya", 2012. 29-b.

Risklarni boshqarish jarayoni loyiha hayotiyligining barcha bosqichlarida muntazam ravishda amalga oshirilishi lozim. Chunki investitsion loyihalar kelajakka qaratilgan, shu bois uning natijalarini oldindan aniqlash muammodir³⁵. Korxonalarda risklarni boshqarish maqsadlarini aniqlashning tasnifiy belgilarini 12-rasm orqali ifodalash mumkin.



12-rasm. Loyiha risklarni boshqarish maqsadlarini aniqlash³⁶

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’kidlash joizki, loyiha tsiklining turli bosqichlarida investitsiyalarni boshqarish uning har bir fazasida amalga oshiriladi. Bunda keng ko’lamli tahlil ishlari olib boriladi. Jumladan, loyihaning oldi fazasida investitsiya imkoniyatlari o’rganiladi, texnik-iqtisodiy asosnoma ko’rsatkichlari tahlil qilinadi, loyiha bo’yicha pul oqimlari tadqiq etiladi, loyiha bo’yicha marketing tadqiqotlari o’tkaziladi, loyihadagi investitsiya risklari o’rganiladi va h.k. Ana shu tahlil natijalari loyiha tsiklining turli bosqichlarida loyihani samarali boshqarish yuzasidan investitsion qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.

³⁵ Максимова В.Ф. Инвестиционный менеджмент: Учебно-практическое пособие. – М.: «ЕАОИ», 2007. – Стр. 187.

³⁶ Стратегический менеджмент. / Под ред. А. Н. Петрова. – СПб.: «Питер», 2008. – С. 381.

2.3. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish orqali boshqarishning xususiyatlari tahlili

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish bozor munosabatlarini shakllantirish yo'liga o'tgan mamlakatlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ular uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish hamda bozor munosabatlari o'rtasida eng maqbul nisbatni o'rnatish juda muhimdir.


Turli mamlakatlar iqtisodiyotida yuz berayotgan investitsion jarayonlarda davlatning roli va ahamiyati bir qancha omillar orqali aniqlanadi. Ular ichida bozor munosabatlarining rivojlanaganlik darajasi va ayni daqiqada ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyat muhim o'rin tutadi.

Darhaqiqat, mavzu investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatning roli to'g'risida borar ekan, masalaning boshqa bir tomoni borki, ayrim hollarda u bahslarga sabab bo'lishi mumkin. Ya'ni, bozor mexanizmlari shakllanib, bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tib borilar ekan iqtisodiyotni, jumladan, investitsion faoliyatni davlat tomonidan muvofiqlashtirish qanchalik to'g'ri degan savol to'g'iladi.

Shu o'rinda jahon amaliyotiga nazar salsak, hozirda G'arbiy Evropa mamlakatlari (Frantsiya, Germaniya, Niderlandiya, Avstriya, Ispaniya, Skandinaviya mamlakatlari), Yaponiya, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator tez rivojlanayotgan mamlakatlarida iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish va boshqarishning eng ko'p rivojlangan mexanizmlari shakllangan. AQSh, Kanada, Avstraliyada xususiy kapital kuchli o'ringa ega bo'lib, iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish va boshqarish ularda nisbatan kuchsiz bo'lib, bozor mexanizmlari yaxshi rivojlangan.

Davlat iqtisodiy boshqaruviga bo'lgan yondashuvlarni asoslash yo'lida G'arb olimlari bozor "muvaffaqiyatsizligi", ya'ni "sinish" hamda davlat "muvaffaqiyatsizligi" nazariyasini olg'a surishadi. Bozor o'z kuchsizligi va kam samaradorligi tufayli resurslarning eng maqbul taqsimotini ta'minlay olmagan

hollarda, ya'ni u muvaffaqiyatsizlikka uchragan joylarda, davlat boshqaruvining turli shakllaridan foydalanadi. Iqtisodiyotni bunday boshqaruv bozor iqtisodiyotiga o'tish davri mamlakatlari uchun xos bo'lib, investitsion faoliyatni davlat tomonidan muvofiqlashtirishning kuchayishi, birinchi navbatda, bozor mexanizmlarining to'la shakllanmaganligi va to'liq ishlamasligi oqibatida yuz beradi. Bozor munosabatlariga teskari bo'lgan bunday proporsiyaning engish uchun hukumat o'tish davrini qisqartiradigan, iqtisodiyotni tubdan qayta quradigan izchil bozor islohotlarini bosqichma-bosqich amalga oshirib boradi.



13-rasm. Xalqaro kapital migratsiyasini tartibga solish³⁷

³⁷ Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: "Moliya", 2010. 73-b.

Shu o'rinda 2005 yil 21 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Bu Farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi etib qayta tashkil qilindi. Vazirlikning asosiy vazifalaridan biri qo'lay investitsiya muhitini shakllantirishga va respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etilishiga ko'maklashish, investitsiya loyihalari ruyobga chiqarilishi monitoringini amalga oshirish, xorijiy investorlarga zarur axborot yordami ko'rsatish masalalari hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida amaldagi yagona davlat mulki shaklidan xo'jalik yuritishning turli xildagi tashkiliy-huquqiy shakllariga o'tish O'zbekistonda kapital mablag'larning markazlashgan taqsimotidan investitsiya qilishning bozor shakliga o'tishni talab qildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan yangi investitsion siyosatni ishlab chiqish kun tartibida turdi.

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 aprelda "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonning kapitalni kapitallashtirish maqsadidagi, investitsion mohiyatini oshiruvchi dalili sifatida shuni aytish mumkinki, uning 2-bandida "mazkur imtiyozlarni qo'llanish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadni korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yunaltirish" deb, belgilab qo'yilgan.

Keyingi yillarda bir talay hukumat hujjatlari qabul qilindi, bu hujjatlarning qabul qilinishida davlatning iqtisodiyotdagi, shuningdek, investitsion sohani tartibga solishdagi roli zarur ekanligini qayd etish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4436 sonli "Angren" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi farmoniga³⁸ (13.04.2012) muvofiq "Angren" maxsus iqtisodiy zona qatnashchilari foyda, mol-mulk, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi va Respublika yo'l jamg'armasiga ajratmalar to'lashdan ozod etiladi. Shuningdek, "Angren" maxsus iqtisodiy zonasi hududiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar boj to'lovlari (bojxona yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod qilinadi.

Ushbu hujjatlarda xususiy ishlab chiqarish sektorida xorijiy investitsiyali korxonalarni barpo etish, kichik biznes rivojiga yordam berish, investitsion va innovatsion faollikni rag'batlantirish kabilar nazarda tutilgan. Shuningdek, bu hujjatlar iqtisodiyotni isloh etish va mamlakatni modernizatsiya qilish bo'yicha ustuvor yunalishlarni izchil amalga oshirishni nazarda tutadi. Investitsiya va tadbirkorlik muhitini yaxshilash, moliyaviy bozorlar rivoji uchun shart-sharoitlar yaratish, byudjet, soliq, pul-kredit siyosatini takomillashtirish kabilar birinchi navbatda ushbu ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish vositalari bo'lishi lozim.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotan investitsiyalar manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, iqtisodiyotga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning salmog'i o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan.


Chet ellik investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni rag'batlantirishga qaratilgan butun bir chora-tadbirlar majmuasi mamlakatimiz

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 apreldagi "Angren maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi Farmoni.

iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan ko'paytirish imkonini berdi.

O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 2014 yilgi Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan 50 dan ortiq loyihani amalga oshirish uchun 675,0 mln AQSh dollari miqdorida mablag' ajratadi (14-rasm).

Ushbu mablag'lar energetika, neft va gaz, kimyo, transport, turizm va boshqa sohalardagi loyihalar uchun yo'naltirildi. 2014 yilda Jamg'arma eng ko'p miqdoridagi kredit mablag'larni yoqilg'i-energetika, kimyo, neft va gaz hamda metallurgiya sohasidagi loyihalar uchun ajratdi.



14-rasm. Investitsiya dasturi doirasida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining tarmoqlar bo'yicha yo'naltirilishi (2015 yilning 1 yanvar holatiga)³⁹

Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib olish, global ilmlarni egallash, soliqlarning tartiblovchi rolini takomillashtirish, ularning rag'batlantiruvchilik rolini kuchaytirishga qaratilmoqda. Bunda asosiy vazifa – xorijlik hamkorlarga kapital qo'yishda eng samarali yo'nalishlarni taklif etish, o'zaro manfaatli sohalarni belgilash, investorlarga kafolatlar berish va ularning huquqlarini himoya

³⁹ www.ufrd.uz.; UzDaily saytlari ma'lumotlari.

qilishdan iborat.

Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat sub'ektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yangi loyihalarga va qo'shma korxonalarga jalb etishga qaratiladi hamda tartibga solish xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutadi. Shunday qilib, tartibga solishning vazifasi, bir tomondan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik sub'ektlarining qo'yilmalarini kengaytirishdan iborat bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, butun O'zbekiston uchun monopol qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bo'lgan paxta etishtirish orqali aholining 3\2 qismi joylashgan qishloq hujaligida aholi farovonligiga erishib bo'lmaydi. O'zbekistonda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning mintaqaviy kontseptsiyalarini ishlab chiqish lozim. Bunda respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini ishlab chiqish hamda bu dasturlarni amalga oshirishda to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalardan maksimal foydalanish chora-tadbirlarini kurish⁴⁰.

Bunday chora-tadbirlar qatoriga: mintaqaviy infratuzilmani yaratish; temir yo'l izlari o'tgan hududlarning kommunikatsiya tizimini barpo etish, ya'ni gaz, suv, elektro-energiyaning muntazam ta'minotini yo'lga qo'yish; bu hududlarda mavsumiy eksportbop qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashish va shu joyning o'zidan temir yul orqali refrejatellarda belgilangan manzillarga yukni etkazish.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

Mamlakatda bozor mexanizmlarining etarli darajada rivojlanmaganligi tufayli investitsion rivojlanishning ustuvor masalalarini hal etishda bozor boshqaruvi orqali hal qilinishi mumkin emas. Shunday ekan, investitsion faoliyatni muvofiqlashtirishdagi endigi vazifa davlat boshqaruvi va bozor mexanizmlari orqali boshqaruvning birga qo'shib olib boriladigan maqbul variantlarini tanlash maqsadga muvofiqdir. Bunda faqat davlatning investitsion jarayonlarda ishtirok etishi tamoyillari va chegaralarini aniqlash muhim hisoblanadi.

Investitsiyalarga davlat va biznes nuqtai nazaridan baho berish bir-biridan farq qiladi. Aksariyat mamlakatlarda muhim investitsion loyihaning amalga oshirilishi bir yoki bir necha davlat muassasalari tomonidan qo'llab-quvvatlanishini talab qiladiki, bu muassasalarni korporatsiya ko'radigan foydadan ko'ra ko'proq jamiyat nuqtai nazaridan qancha xarajat va qancha foyda olishlik mumkinligi ko'proq qiziqtiradi.

Davlatning byudjet mablag'i hisobidan investitsiya qilishda ishtirok etishi doimo uning moliyaviy imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan ma'lum chegaralanganlikka to'qnash keladi. Davlat bozor iqtisodiyoti sharoitida asosan ijtimoiy sohada va alohida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan sohalarda bevosita investor sifatida qatnashmog'i darkor. Shu o'rinda Dj.M. Keynsning fikricha davlatning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari faqat ijtimoiy sohaning notijorat ob'ektlariga yo'naltirilmog'i lozim. Davlatning ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun amalga oshiriladigan ulushli investitsiyalarining salmog'i investitsion loyihalarning umumiy summasida 20 foizdan oshmaslik kerak.

Respublika va mahalliy byudjetning etarli emasligi hammaga ma'lum. Bundan tashqari, davlat rolining o'sishi chet el va xususiy investitsiyalarning davlat investitsiyalari tomonidan siqib chiqarilishini emas, balki ularni yanada ko'proq bo'lishini rag'batlantirishi lozim. Xo'jalik faoliyatini boshqarish ma'muriyatchilik va buyruqbozlikka aylantirilmasligi darkor.

Davlatning investitsion siyosati samaradorligini oshirish birinchi navbatda xususiy investorlarni rag'batlantirish, bozor erkinliklarini saqlash, kengaytirish

va ko'paytirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, hududiy investitsion faollikni oshirish va investitsion jarayonlarida mahalliy hokimiyat organlarining roli va mas'uliyatini ortishi bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu jarayonlarning markazlashtirilishini kamaytirish asosiga quriladi. O'zbekistonning investitsion siyosati qo'yidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak:

- respublika qonunchiligi kamchiliklarini bartaraf etishga;
- davlatning investitsion siyosati noizchilligini tekislashga;
- ortiqcha ishchi kuchiga ega bo'lgan hududlarga investitsiyalarning ko'plab to'planishiga qulay shart-sharoit yaratadigan investitsion muhitni shakllantirishga;
- ijtimoiy masalalarni hal etishga;
- hududlardagi infratuzilmani rivojlantirishga.


Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyat organlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga soliq, ishlab chiqarish quvvatlari, bino va inshootlar kabi masalalarda rag'batlantiruvchi imtiyozlarni berish orqali o'z hududlarida investitsion faollikka erishishlari mumkin. Bu tadbirlarning barchasi investitsion muhitni yaxshilanishi hamda investitsiyalarning ko'payishiga olib keladi.

O'zbekistonga xorijiy sarmoyalar oqimi kengayishi munosabati bilan investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda e'tibor beriladigan muhim jihat jamiyat va xususiy manfaatlar, xorijiy mamlakatlar, kompaniyalar, muayyan investorlar manfaatlarining samarali nisbatini belgilash hisoblanadi. Iqtisodiyot erkinlasha borgan sari investitsiya faoliyatining davlat tomonidan tartiblanishi, ko'proq, xususiy tadbirkorlik sohiblari va iqtisodning aralash sektorlarining investitsiya faoliyatiga kengroq jalb etilishiga va bu borada ularni rag'batlantirishga qaratiladi.

Bundan tashqari, davlatning investitsiya faoliyatiga qanday vositalar va dastaklar orqali ta'sir ko'rsatishi ham muhim masaladir. Har qanday jamiyatdagi investitsiya faoliyati o'z-o'zidan rivojlana olmaydi, unga, albatta, muayyan ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektlarning aralashuvi talab qilinadi. Bunday aralashuvning samarali natijasini faqat davlat qo'li bilangina ta'minlash mumkin

bo'ladi. Biroq, bunday vaziyatda davlat investitsiya faoliyatining rivojlanishini bo'g'ib qo'ymasligi kerak, aks holda, uning amal qilishi sub'ektivlik ta'sir kuchiga bo'ysundirilib qo'yiladi.

Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini boshqarish bir qator chora-tadbirlarni qo'llash, ularni hayotga tatbiq etish asosida amalga oshiriladi. Bu chora-tadbirlar qo'yidagilardan iborat:




15-rasm. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solish usullari va vositalari⁴¹

Shu o'rinda, ta'kidlash joizki, davlat o'z funktsiyalarini bajarishi uchun investitsiya faoliyatini tartibga solishning tashkiliy va bevosita usullaridan

⁴¹ Nazariy ma'lumotlar asosida shakllantirildi.

foydalanadi. Investitsiya faoliyatini tartibga solishning tashkiliy masalalari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni keng rivojlantirish va chuqurlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish va xorijiy sarmoyadorlarga ishonchli kafolatlarni ta'minlash, tashqi savdoni yanada erkinlashtirish, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari bilan xorijiy firmalar o'rtasidagi uzoq muddatli barqaror sheriklik munosabatlarini shakllantirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi⁴² Farmonida Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga asosiy vazifalar belgilab berildi.



16-rasm. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining investitsiya faoliyatini tartibga solishdagi roli⁴³


⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 21 iyuldagi "Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 3631-sonli Farmoni.

⁴³ Nazariy ma'lumotlar asosida shakllantirildi.

Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda soliqlar va soliq siyosati davlatning iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi va undagi faollikni rag'batlantiruvchi eng muhim quroli sifatida xizmat qiladi.

Korxonalar investitsiya faoliyatini rag'batlantirish uchun ish boshlagandan emas, balki ular foyda olganlaridan boshlab soliq kanikulini berish maqsadga muvofiqdir.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida soliq stavkalari oshib borayotgan, masalan, Frantsiyada uning ko'rsatkichi yirik mulkdorlar uchun 75 foizga etgan, Evropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarda ish o'rinlari va aholini ijtimoiy himoya qilish paketlari qisqarib borayotgan va buning oqibatida bir qator ijtimoiy murakkabliklar vujudga kelgan bir sharoitda O'zbekistonda 2014 yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 20,5 foizdan 20,0 foizga tushirilgani muhim omil bo'ldi.



17-rasm. Iqtisodiyotdagi soliq yuki⁴⁴, %

O'zbekistonda investitsion faoliyatni rag'batlantirishda daromad solig'i stavkalarining pasaytirilishi muhim omil bo'lmoqda. Jumladan, soliq yukini yanada kamaytirish, yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasini 9 foizdan 8 foizga, jismoniy shaxslar uchun eng kam soliq hajmini 8 foizdan 7,5 foizga tushirish iqtisodiyotimiz rivojida albatta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday

⁴⁴ www.mineconomy.uz. sayti ma'lumotlari.

soliq engilliklari 130 milliard soʻmdan ortiq mablagʻni tejash va uni korxonalar ixtiyorida qoldirib, ularning oʻz aylanma mablagʻlarini koʻpaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, shuningdek, aholi daromadlarini 90 milliard soʻmdan koʻproq oshirish imkonini beradi. Agar statistik maʼlumotlarga eʼtibor beradigan boʻlsak, daromad (foyda) soligʻi stavkasi 2001 yilda 26 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2014 yilga kelib 8 foizni tashkil qildi. Buni 11-jadval maʼlumotlaridan koʻrish mumkin.

11-jadval

Daromad (foyda) soligʻi stavkasining pasayishi tendentsiyasi⁴⁵

№	Koʻrsatkichlar	2001 yil	2002 yil	2003 yil	2004 yil	2005 yil	2006 yil	2007 yil	2013 yil	2014 yil
1	Daromad (foyda) soligʻi stavkalari miqdori	26	24	20	18	15	12	10	9	8

*Soliq solinadigan bazaga nisbatan %da soliq stavkalari

Xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning soliq yukini yanada amaytirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq toʻlovining 10 foizdan 8 foizga, 2009 yildan boshlab 7 foizga, bugungi kunda esa 6 foizga tushirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi stavkalarining kamaytirilishi va ayni paytda uni hisoblash tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun kuchli ragʻbatlantiruvchi omillar yaratdi⁴⁶.

Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror oʻsish surʼatlarini taʼminlashda eng muhim omil boʻldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014 yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foizdan 10 foizga, tijorat banklarining kreditlar boʻyicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tugʻdirdi.

Quyidagi 12-jadval maʼlumotlariga koʻra, Markaziy bankning qayta

⁴⁵ www.soliq.uz. sayti maʼlumotlari.

⁴⁶ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. – T.: “Oʻzbekiston”, 2009. 24-b.

moliyalash stavkasi 2008 yilga kelib 14 foiz miqdorida belgilangandi, 2011-2013 yillar mobaynida yillik 12 foiz miqdorida saqlab turildi. 2014 yilda ushbu stavka yillik 10 foiz miqdorida belgilandi. Qayta moliyalash stavkasini shu holatda ushlab turilishi pul bozorida moliyaviy resurslarga bo'lgan talab va taklifning muvozanatini saqlashga, real sektor korxonalarining investitsion imkoniyatini oshirishga, iqtisodiyotni kreditlash hajmini yanada kengaytirish va ayni paytda tijorat banklari resurs bazasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi. 2015 yilda ushbu stavka esa 9 foiz miqdorida belgilandi⁴⁷.

12-jadval

**O'zbekistonda qayta moliyalash stavkasi va inflyatsiya darajasi
dinamikasi⁴⁸**

Ko'rsatkichlar	2002 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi	30,0	14,0	14,0	14,0	12,0	12,0	12,0	10,0
Yillik inflyatsiya darajasi	21,6	7,8	7,4	7,3	7,6	7,0	6,8	6,1

2014 yilda respublikadagi barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari hamda Markaziy bank tomonidan qat'iy monetar siyosatining yuritilishi, o'z navbatida, mamlakatimizning pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari dinamikasida, jumladan, tijorat banklarining kreditlari va depozitlari bo'yicha hamda banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavkalarida o'z aksini topdi. Xususan, 2014 yil davomida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar daromadining oshishi hisobiga respublikamizdagi moliya institutlari resurs bazasining kengayishi banklararo pul bozoridagi resurslar taklifining ko'payishiga va o'z navbatida, moliyaviy resurslar narxining arzonlashishiga sabab bo'ldi. Jumladan, 2012 yil davomida banklararo pul bozoridagi operatsiyalar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi yillik hisobda 10,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda ushbu ko'rsatkich 9,0 foizga teng bo'ldi.

⁴⁷ 2014 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. <http://cbu.uz/uz.sayti/ma'lumotlari>.

⁴⁸ www.cbu.uz.sayti/ma'lumotlari.

Xullas, har bir davlat investitsiya faoliyatini quyidagi maqsadlarda muvofiqlashtirib boradi: bozor iqtisodiyoti sharoitiga kirib borish jarayonida davlatning iqtisodiy siyosati amalga oshirilishi; davlatning fan-texnika siyosatini o'tkazish va buning asosida xo'jalik tabaqalarini mustahkamlash hamda jahon bozoriga chiqishiga ko'maklashish; mamlakat ijtimoiy siyosatini yuritish. Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish uning muhim yo'nalishlarida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan bo'ladi, avvalom bor, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tatbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratiladi.

Ikkinchi bob bo'yicha qisqa xulosa:

– 2014 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga 14,6 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiyalarning jalb qilinganligi va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,5 foizni tashkil etganligi Hukumatimiz tomonidan faol investitsiya siyosati olib borilayotganligini, investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashib borayotganligini, mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti yaratilganligini ko'rsatadi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Biroq, jami investitsiyalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qilganligi xorijiy sarmoyalarni jalb qilish talab darajasida emasligini ifodalaydi;

– investitsiya loyihalarini boshqarish loyiha tsiklining har bir bosqichida amalga oshiriladi. Investitsiya loyihalarining har jihatdan samaradorligini ta'minlashda esa investitsiya oldi tadqiqotlari bosqichi hal qiluvchi ahamiyatga ega;

– investitsiya loyihalarini boshqarish loyiha tsiklining to'rt bosqichida amalga oshiriladi: investitsiya oldi bosqichi; investitsiya bosqichi; ekspluatatsiya bosqichi va likvidatsiya bosqichi;

– investitsiya oldi fazasida loyihalarni boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi: investitsiya imkoniyatlarini aniqlash; muqobil loyihalarni va uning turli variantlarini tahlil qilish hamda rejalashtirish; nazorat; tartibga solish.

Loyihaning ushbu bosqichlardan o'tishi uni samarali boshqarishga yaqindan yordam beradi;

– O'zbekistonda olib borilayotgan investitsiya siyosati natijasining qanday samara berishi mamlakatdagi investitsion faoliyatning rivojlanish holati bilan belgilanadi. Shu sababli, odatda, har qanday investitsiya siyosatining maqsadi mavjud investitsiya faoliyatining rivojlanish istiqboliga qaratiladi. Bu maqsad o'zida davlatning investitsiya faoliyatini muntazam ravishda tartibga solish va muvofiqlashtirish vazifasini ham mujassam etadi;

– tartibga solish (iqtisodiy) – bu iqtisodiy jarayonlar rivojlanishining yo'nalishlarini aniqlash, yo'lga qo'yish va ma'lum tizimga solishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan harakat. Investitsiya faoliyatini tartibga solish deganda, huquqiy nuqtai nazaridan, turli mulkdorlar o'rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o'ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarni shakllantirish me'yorlarini nazarda tutishi ta'kidlanadi;

– mamlakatimizda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirida davlatning roli, eng avvalo, investitsion jarayonlarni faollashtirish uchun qulay investitsion muhit yaratish, bu borada soliq, bojxona, pul-kredit va investitsiya siyosatlarini faol olib borish, ular uchun turli moliyaviy imtiyozlar va preferentsiyalar yaratish, investitsiyalarni iqtisodiyotni modernizatsiyalashga yo'naltirish bilan xususiyatlanadi.

III BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI


Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida hududlarda investitsiyalarni samarali boshqarishning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham, hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni yo'naltirishda ilmiy asoslangan holda ish tutish, kapital sarmoyalarning qaytishini jadallashtirish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik jihatlariga e'tibor qaratish hamda investitsiya mablag'larining tarmoq va soha taqsimotiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish muhimdir.

Investitsiyalarni boshqarish jarayoni murakkab bo'lib, bunda barcha omillarni hisobga olish lozim. Fikrimizcha investitsiyalarni boshqarish bu – qabul qilingan strategiya asosida investitsion faoliyatni doimiy ravishda amalga oshirish va resurslar bilan ta'minlanganlik ustidan investorlarning (davlat, korxona, xorijiy sarmoyador, fuqaro) nazoratidir.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonini samarali tashkil etish va takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish mumkin:

1. Davlat nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish;
2. Tarmoq nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish;
3. Alohida xo'jalik sub'ektlari nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini takomillashtirishning mazkur yo'nalishlari va ularning tarkibiga kiruvchi usul, vosita, mezon va xususiyatlarini quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin:



18-rasm. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari⁴⁹

Davlat nuqtai-nazardan investitsiyalarni boshqarish jarayoni bevosita muhim ahamiyatga ega. Bunda davlat, asosan, qonunchilik va ushbu jarayondagi barcha holatlarni nazorat qiladi. Investitsiya loyihalarini boshqarishda esa, asosan rejalashtirish va tashkil etish hamda loyihaaning samaradorligini aniqlashdan iborat. Korxona yoki alohida xo'jalik sub'ektlarida investitsiyalarni boshqarish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Korxonalarda qisqa muddatda kapital qo'yilmasini boshqarish va uni

⁴⁹ Nazariy ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

foydaliligini nazorat qilish korxonaning kelajakdagi istiqboliga bog'liqdir.

O'z navbatida investitsiya faoliyatini boshqarishning asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- investitsiya faoliyatini rivojlanish strategiyasini qayta ishlash. Bu funktsiyani amalga oshirish jarayonida rivojlanishning umumiy strategiyasi va tashqi iqtisodiy vositalarning bashorat hajmlarini butun tizimda va bundan tashqari investitsion faoliyatning butun ko'rsatkichlarini uzoq muddatli davrda ham shakllantiradi investitsiyalardan foydalanishning muhimligini ko'rsatib beradi, yaqin istiqboldagi echimlarni asoslaydi va investitsiya siyosatini qayta ishlaydi;

- investitsiyalarni boshqarishning samarali axborot tizimini yaratish, boshqaruvning turli muqobil variantlarini asoslash. Bu bosqichda dastlabki tashqi va ichki ma'lumot manbalari shakllantiriladi, rivojlanishning asosiy parametrlari bo'yicha monitoring tashkil qilinadi va shu asosida investitsiyalardan foydalaniladi;

- investitsion jarayonlarni turli jihatlarining tahlilini amalga oshirish. Hududda investitsion faoliyatning tezkor tahlili o'tkaziladi. Investitsiyalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining asosiy dinamikasi tadqiq etiladi. Omillarning fundamental tahlili amalga oshiriladi. Investitsion jarayonlarga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar aniqlanadi;

- investitsiyalardan samarali foydalanish va rejali rivojlantirishni amalga oshirish. Bu funktsiyalarni amalga oshirish joriy rejalar tizimini qayta ishlaydi va investitsion resurslardan foydalanish bo'yicha tezkor byudjet tuziladi. Bu rejaga asosan investitsion jarayonlarni rivojlanish strategiyasi qayta ishlab chiqiladi;

- investitsiya faoliyati doirasida samarali boshqaruv va nazorat tizimini amalga oshirish. Bu esa investitsiyalarni doimiy ravishda monitoring qilish imkoniyatini beradi;

- investitsion bozorni rivojlanishini tahlil qilish va bashoratlash, investitsion bozor kon'yunkturasi va investitsion faoliyat bo'yicha umumdavlat

ehtiyojlarini aniqlashga imkon beradi;

- mamlakatning rivojlanish yo'lida investitsiya siyosati yo'nalishlari strategiyasini ishlab chiqish;

- davlatning yaxlit investitsion dasturlarini ishlab chiqish;

- investitsion faoliyatni nazorat qilish va tartibga solish, rag'batlantirish borasidagi qonunchilik faoliyatini ko'rib chiqish;

- investitsion faoliyatni va barcha darajadagi tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirish va monitoring qilish, shuningdek, alohida investitsion loyihalarni moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash.

Ushbu biz qayd etib o'tgan investitsiya jarayonlarini boshqarishning asosiy funktsiyalari turli nuqtai-nazardan tahlil etilgan. Bizning fikrimizcha, davlat investitsion siyosatini amalga oshirish, tartibga solish va shakllantirish mas'uliyati, shuningdek aniq xususiy investitsion jarayonlarni infratuzilmasini rivojlantirish va ta'minotini tashkil qilish asosida investitsion faoliyatni boshqarishning quyidagi standart funktsiyalarini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

- investitsiya faoliyatini tahlil qilish va bashoratlashtirish;

- investitsiya faoliyatini strategik, joriy va tezkor boshqaruv;

- investitsiya faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish;

Boshqaruv sub'ektlari darajasida ushbu funktsiyalar bir-biridan farqli ravishda amalga oshiriladi. Masalan, davlat darajasida investitsion faoliyat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik rivojlanish sohalaridagi boshqarishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, davlat investitsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri boshqaruvini ham tashkil etadi. Davlat darajasida investitsiyalarni boshqarish jarayonini asosiy maqsadi quyidagilar ekanini e'tiborga olishimiz darkor:

- investitsiyalash bo'yicha qonunchilik chora-tadbirlarini ko'rib chiqish;

- moliyaviy, pul-kredit va narx shakllanishi hamda amortizatsion siyosatlarini o'tkazish;

- davlat me'yorlari va standartlariga amal qilishni nazorat qilish;

- monopoliyaga qarshi chora-tadbirlar, davlat mulki ob'ektlarini

xususiylashtirish hamda investitsiya loyihalarni ekspertiza qilish.

Ushbu investitsiyalarni boshqarish funktsiyalari barcha holatlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. O'z navbatida, hududlarda investitsiyalarni samarali boshqarishda quyidagi asosiy vazifalarga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq:

- samarali investitsion faoliyatni inobatga olgan holda, hududning yuqori sur'atli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash;
- hududning kelgusidagi rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda strategik investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, hayotga tatbiq etish, muvofiqlashtirish va rejalashtirish;
- hudud miqyosida byudjet daromadlarini oshirish, iqtisodiy o'sishga erishish va pirovardida aholi turmush darajasini oshirish;
- hududda investitsion faoliyat riski (tavakkalchiligi) borasida axborot berish.

Biz yuqorida investitsiya faoliyatini boshqarishning asosiy funktsiyalariga to'xtalib o'tib, ushbu funktsiyalar turli nuqtai-nazardan tahlil qilib chiqdik. O'z navbatida, hududlar miqyosida investitsiyalarni boshqarishning funktsiyalari bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadiki, har bir hududda investitsiyalarni samarali boshqaruv jarayoni ushbu hududning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir etadi.

Investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirishda hududlar investitsiya faoliyatini boshqarishni samarali tashkil etish muhim o'rin egallaydi. Hududlar darajasida investitsiyalarni boshqarish qator funktsiyalarni o'z ichiga oladi:

1. Hududlarning investitsion faoliyati strategiyasini ishlab chiqish. Bu jarayonda yuqoridagi funktsiyalarni amalga oshirish, hududdagi firmalarni umumiy rivojlanish strategiyasini va investitsion bozor kon'yunkturasini bashoratlash, uzoq muddatli davrda investitsion faoliyatning asosiy yo'nalashlarini shakllantirish, yaqin istiqbolda investitsion faoliyatni eng muhim vazifalarini aniqlash va muammolarni echishni ko'zda tutadi.

2. Tashqi investitsiya vositalari va investitsiya bozori kon'yunkturasini bashoratlashni tadqiq qilish. Bunda, hudud investitsion faoliyatini amalga oshirishda bir necha funktsiyalar bajariladi. Joriy investitsiya bozori kon'yunkturasi, omillarini aniqlash va tadqiq etish; alohida sohalar nuqtai-nazaridan investitsiya bozori kon'yunkturasi bashoratlanadi.

3. Hududlarning investitsion resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish. Bu jarayonda investitsiya resurlariga umumiy ehtiyojni bashoratlashni amalga oshirish, alohida bosqichda investitsion strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirish, shaxsiy manbalar hisobidan investitsion resurslarni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash hamda bu borada boshlang'ich vositalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish nazarda tutiladi. Investitsion resurslarni tuzilishini optimallashtirish jarayonida qarz vositalari va ularning investitsiya bilan munosabatlarini muntazam ravishda ta'minlash, shuningdek, investitsiya manbalarini kengaytirish va kelajakda hududdagi korxonalarning to'lovga qobillilik hamda imkoniyatlarini oshirishni nazarda tutadi.

4. Alohida loyihalarni investitsion jozibadorligini baholash va bularning ichidan eng samaralilarini ajratish. Bu funktsiyalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya bozoridagi joriy takliflarni o'rganish, hudud korxona va firmalarining investitsion strategiyalarini eng samaralilarini baholash va ekspertizadan o'tkazish, har bir investitsion loyihani daromadlilik darajasini va boshqa iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblashni ko'zda tutadi.

5. Hududlardagi investitsion portfelni shakllantirish va daromadlilik, tavakkalchilik va likvidlilik mezonlari bo'yicha ularni baholash. Bu funktsiyalar investitsion resurslar hajmi va ularning daromadlilik ko'rsatkichlarini hisoblash, har bir investitsion loyiha va moliyaviy vositalar bo'yicha tavakkal darajasini hisoblashni nazarda tutadi. Birinchi bosqichda real va moliya investitsiyalar o'rtasidagi mutanosibliklarni investitsiya portfeli asosida shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichda esa, eng samarali investitsion loyihalar tanlab olinadi. Uchinchi bosqichda portfellarni to'lovga qobilliligini baholanadi. Investitsion portfelning bunday shakllanish jarayoni joriy davrda yalpi investitsion dasturlar

orqali amalga oshiriladi.

6. Hududlarda alohida investitsion dasturlar va loyihalarni tezkor boshqaruvini amalga oshirish hamda joriy rejalashtirish. Bu funktsiyalarni bajarish jarayonida hududlarda turli joriy rejalarni investitsion portfelini shakllantirishni tezkor boshqaruvini ta'minlash va ularni ishlab chiqish nazarda tutiladi. Bu jarayonda alohida investitsion loyihalarni amalga oshirishda kalendar reja va uning byudjeti muhim rol o'ynaydi.

7. Hududlarda alohida investitsion dasturlar va loyihalarni amalga oshirish monitoringini tashkil etish. Bu funktsiyalarni bajarishda boshlang'ich kuzatilgan ko'rsatkichlar tizimi shakllantiriladi, unda alohida investitsion loyihalar va har bir investitsion dasturlar bir-biriga bog'liq holda amalga oshiriladi. Bu jarayonda ma'lumotlar tahlil qilinadi va yig'ilganlarning davriyligi aniqlanadi. Loyihalarni amalga oshirish jarayoniga investitsiyalar samaradorligi, ularning moliyaviy hajmi va loyihalarning muddati ta'sir ko'rsatadi.

8. Hududlarda kapitalni qayta investitsiyalash va samarasiz investitsion loyihalardan voz kechish. Bu davrda hudud investitsiya bozori kon'yunkturasi o'zgarishi, hududdagi kompaniyalarning moliyaviy holati, ulardagi investitsiya portfelini shakllanish jarayonlari, alohida investitsion loyihalar kutilayotgan samaradorligi oqibatlarini hisoblab chiqiladi. Bunday sharoitda ushbu investitsion loyihalardan voz kechish yo'llari tanlanadi.

Demak, hududlarning investitsion faoliyatini strategik boshqaruvining muhim funktsiyasi bu – hudud investitsion strategiyasini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bunda investitsiya faoliyat yo'lida uzoq muddatli maqsadlarni shakllantirish tushiniladi va bunda eng samarali investitsion faoliyatga erishish ko'zda tutiladi.

Hududlarning investitsion strategiyasini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, u hudud investitsiya bozori kon'yunkturasini bashoratlashga asoslanadi va investitsiya faoliyati shartlarini amalga oshiradi. Bu jarayonni murakkabligi shundaki, bu davrda hudud investitsiya strategiyalarni shakllantirish, investitsion resurslarni izlab topish, muqobil investitsiya variantlarini baholash bilan birga

amalga oshiriladi va u hudud firmalarining imidjini oshiradi va uni rivojlanishi belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday investitsion strategiya tezda o'zgarmaydi, u ushbu hududdagi firmalarning iqtisodiy o'sishining yangi imkoniyatlari va tashqi shartlarini inobatga olgan holda davriy tartibga solishlarni talab etadi.

Hududda investitsion strategiyani shakllantirish shart-sharoitlari korxona va firmalarning iqtisodiy rivojlanishining strategik asosi bo'lib xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, hudud investitsiya strategiyasi firmalarning samarali rivojlanishini ta'minlaydigan bosh omil bo'lib hisoblanadi va u investitsiyalarni samarali boshqarishga asoslanadi. Hudud korxonalarining investitsion strategiyasini shakllantirish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich bosqichda hudud investitsiya strategiyasi ishlab chiqiladi va uni shakllantirishni umumiy davri aniqlanadi. U investitsiya bozori va iqtisodiyot rivojlanishini oldindan ko'ra olish, uning davriyligini baholash, korxona va firmalarning asosiy strategiyasini shakllanishi uchun echimni qabul qilish, ularning tarmoqlarini o'lchami kabi shartlar bilan bog'liqdir.


Investitsion faoliyatni shakllantirish maqsadi kapitalning qo'shimcha o'sish sur'atlarini ta'minlashga, investitsiyalarni daromadlilik darajasini o'sishiga, moliyaviy investitsiyalash va texnologik o'zgarishlarga, kapital qo'yilmalar tuzilishining qayta ishlab chiqilishiga hamda pirovard natijada hududda iqtisodiy o'sishga, aholining turmush darajasining oshishiga erishiladi.

Hududdagi korxona va firmalarning investitsion faoliyati strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish firmadagi barcha maqsadlar tizimiga asoslanadi. Bu jarayonda quyidagilar ishlab chiqilishi ko'zda tutiladi:

- istiqbolli davrning alohida bosqichlarida turli investitsiyalash shakllari;
- investitsion faoliyatni tarmoq yo'nalishlari;
- investitsion faoliyatni hudud yo'nalishlari aniqlanadi.

Hududlarda investitsiya resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish korxona va firmalarning, nafaqat, investitsion faoliyatining unsuri, balki, eng muhim moliyaviy strategiyasining unsuri ham hisoblanadi. U belgilangan

hajmdagi investitsiya faoliyatini uzluksiz ravishda rag'batlantirishni ta'minlaydi hamda shaxsiy moliyaviy vositalardan eng samaralisidan foydalanadi va uzoq muddatli davrda istiqbolda hududdagi korxona va firmalarning moliyaviy barqarorligini oshiradi. Hududlarda bu strategiyalarni ishlab chiqish quyidagi bosqichlar bo'yicha amalga oshiriladi:



19-rasm. Hududlarda investitsion resurslar strategiyasini ishlab chiqish bosqichlari⁵⁰

Hudud investitsiya strategiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning aniq maqsadlarini va strategik vazifalarini belgilangan tartibda qayta ko'rib chiqish jarayonida tashqi va ichki omillarni bir-biriga moslashtiriladi. Tashqi omillar hudud firmalarining strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ko'zda tutadi, shuningdek, investitsiya bozori kon'yunkturasi o'zgarishlarini bashoratlaydi. Ichki omillar investitsiyalashning alohida yo'nalishlarini amalga oshirishni ko'zda tutadi, shuningdek, bu jarayonda investitsiya resurslarini shakllantiriladi.

Fikrimizcha hududda investitsiya strategiyalarini amalga oshirish jarayonida ko'plab omillar hisobga olinishi lozim. Hudud investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga

⁵⁰ Ismailov D.A. Iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini boshqarishning funktsiyalari, maqsadi va vazifalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №4, may, 2012. 24-b.

oshirish maqsadga muvofiq:

- hudud firmalarining umumiy strategiyasi bilan alohida firmaning investitsiya strategiyasini muvofiqlashtirish. Bu jarayonda strategiyani amalga oshirish bosqichlari, yo'nalishlari hamda muvofiqlik maqsadlari tadqiq etiladi;

- hududda investitsiya strategiyasini ichki muvozanatlashganligi. Bu jarayonda investitsion faoliyat yo'nalishlari va alohida strategik maqsadlar o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlanadi va natijalari baholanadi;

- investitsiya strategiyalarini tashqi vositalar bilan muvofiqlashganligi. Bunda hududda ishlab chiqilgan investitsion strategiya bilan mamlakatning investitsion muhitdagi o'zgarishlar muvofiqligi baholanadi hamda investitsiya bozori kon'yunkturasi bashoratlanadi;

- hudud investitsiya strategiyasi resurslarini salohiyatini hisobga olgan holda amalga oshirish darajasi. Bu jarayonda avvalo, firmalarning xususiy manbalari hisobidan moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyati va salohiyati ko'rib chiqiladi. Kelajakda hudud investitsiya strategiyalarini amalga oshirish imkoniyatlari moliyaviy, texnologik, energetik nuqtai-nazardan tahlil etiladi;

- investitsion strategiyalarni amalga oshirishda ularni tavakkal darajasi bilan muvofiqlashganligi. Bu jarayonda hududdagi asosiy investitsiyani tavakkal darajasi va ushbu hudud firmalarining moliyaviy imkoniyatlarini baholash ko'rib chiqiladi:

- hudud investitsiya strategiyalarini natijaviyligi. Investitsion dasturlarni natijaviyligini baholash ularni iqtisodiy samaradoriligini amalga oshirish bilan baholanadi. Bu baholash jarayonida tashqi iqtisodiy natijalar sifatida firmalar imidjini o'sishi, ishchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilanishi va boshqalar tahlil etiladi.

Uchinchi bob bo'yicha qisqa xulosa:

- investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonini samarali tashkil etish va takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: 1) davlat nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni

takomillashtirish; 2) tarmoq nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish; 3) alohida xo'jalik sub'ektlari nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. Bunda davlat nuqtai-nazardan investitsiyalarni boshqarish jarayoni bevosita muhim ahamiyatga ega. Davlat, asosan, qonunchilik va ushbu jarayondagi barcha holatlarni nazorat qiladi. Investitsiya loyihalarini boshqarishda esa, asosan rejalashtirish va tashkil etish hamda loyihaning samaradorligini aniqlashdan iborat. Korxona yoki alohida xo'jalik sub'ektlarida investitsiyalarni boshqarish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi;

– mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida hududlarda investitsiyalarni samarali boshqarish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida investitsiyalarni boshqarish mexanizmi nazariy jihatdan ko'rib chiqildi, bu esa investitsiyalarni boshqarishning maqsadi va asosiy vazifalarini amalga oshirishda muhim o'ringa egadir;

– hududlarning investitsion faoliyatini strategik boshqaruvining muhim funktsiyasi bu – hudud investitsion strategiyasini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bunda investitsiya faoliyat yo'lida uzoq muddatli maqsadlarni shakllantirish tushuniladi va bunda eng samarali investitsion faoliyatga erishish ko'zda tutiladi.

XULOSA

Bugungi kunda investitsion faoliyatini boshqarish uning samaradorligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlar majmui hamda jamg'arish, investitsiyalash, kapitalizatsiya va foyda olish ko'rinishida harakatlanuvchi faoliyat investitsiya faoliyati deyiladi. Investitsiya faoliyatining rivojlanishi ishlab chiqarishni kengaytirish siyosatini amalga oshirishga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash va uning sifatini oshirishga, ijtimoiy sohalarni yanada rivojlantirishga, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, korxona ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, asosiy fondlarning jismoniy va ma'naviy eskirishiga yo'l qo'ymaslik, ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasini oshirish, korxonalar mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlash, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqa korxona aktivlariga o'z mablag'larini sarflash asosida foyda olish maqsadlariga erishish imkonini beradi.

2014 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga 14,6 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiyalarning jalb qilinganligi va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,5 foizni tashkil etganligi Hukumatimiz tomonidan faol investitsiya siyosati olib borilayotganligini, investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashib borayotganligini, mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti yaratilganligini ko'rsatadi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Biroq, jami investitsiyalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qilganligi xorijiy sarmoyalarni jalb qilish talab darajasida emasligini ifodalaydi.

Investitsiyalarning tarkibi, hajmi, qiymati, sifati va investitsiya faoliyati ishtirokchilari manfaatlari ta'minlanishi bo'yicha erishish uchun boshqaruvning zamonaviy usullari, texnika va texnologiyasidan foydalanish yo'li bilan investitsiyalash maqsadlariga samarali erishishga yo'naltirilgan mehnat, moliyaviy va moddiy-texnikaviy resurslarni rejalashtirish, tashkil etish,

boshqarish va muvofiqlashtirish metodologiyasiga investitsiya faoliyatini boshqarish deyiladi.

Investitsiya loyihalarini boshqarishning zarurligini quyidagilar bilan izohlash mumkin: moliyaviy nobarqarorlik sharoitida investitsiya loyihasi bo'yicha investitsiyalashning amalga oshirilishi uning samaradorligini pasaytirib yuborish xavfini kuchaytiradi. Bu investitsiya loyihasidan kutiladigan samarani ta'minlashda uni boshqarishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi; investitsiya loyihalarini boshqarish vaqt jarayoni bilan bevosita bog'liq. Bu, o'z navbatida, vaqtning investitsiya loyihasi natijalariga ta'sirini maqbullashtirishda muhim o'rin egallaydi. Pulning vaqt mobaynida o'z qiymatini yo'qotib borishi investitsiya jarayonida kapitalning investor loyihadan kutgan samarani hosil qilishini ta'minlash yo'lida to'g'ri va optimal ishlatilishini ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi va oshiradi; investitsiya loyihasini amalga oshirishning yakuniy natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri inflyatsiya hisoblanib, u foiz stavkasining surunkali o'zgarib borishi, valyuta kursining o'zgarishi, talab va taklifning o'zgarishi, qonunchilikdagi nobarqarorlik kabilar natijasida yuzaga keladi; turli noaniqliklarning mavjudligi va ta'siri sabab har qanday investitsiya loyihasining kuchli va oqil tomonlari bo'lishini hisobga olgan holda ularni moliyaviy tahlil va diagnostika qilish orqali loyihani amalga oshirish jarayonida duch kelinadigan risklar, inqirozli vaziyatdan chiqib ketish yuzasidan qarorlar qabul qilish lozim bo'ladi. Bunda ko'riladigan zararlardan o'zini-o'zi sug'urtalash amaliyotini kuchaytirishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Investitsiya loyihalarini boshqarish usullari quyidagilarni ta'minlashi lozimligi muhim hisoblanadi: loyiha maqsadini aniqlash va uning asoslanishini amalga oshirish; loyihaning tarkibiy tuzilishini aniqlash (maqsadli yo'nalishlari, bajariladigan ishlarning asosiy bosqichlari); loyihani moliyalashtirishning zaruriy hajmi va manbalarini aniqlash; ijrochilarni aniqlash, jumladan, konkurs va tender jarayonlari orqali aniqlash; shartnomalarni tayyorlash va rasmiylashtirish; loyihani bajarish muddatini aniqlash, uni amalga oshirish

grafigini ishlab chiqish, zaruriy resurslarni hisoblab chiqish; loyiha smetasi va kapital byudjetini hisoblab chiqish; risklarni rejalashtirish va hisoblash; loyihaning bajarilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash va boshq.

Mamlakatimizda investitsiya faoliyatini samarali boshqarish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsad yo'lida qabul qilingan ko'plab qonun hujjatlarida belgilangan investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish, investitsiyalarni amalga oshirish tartibi, investorlar uchun yaratilgan kafolatlar, imtiyozlar va rag'batlantirish omillari investitsiya loyihalarini samarali boshqarishga ham birday ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Investitsiya faoliyatini boshqarishda davlat Investitsi dasturi ham muhim o'rin tutadi. Unda iqtisodiy rivojlanishning tarmoqli yo'nalishlari va mamlakatimiz mintaqalarida milliy iqtisodiyotning barcha ustuvor tarmoqlari bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiyalar hajmi belgilab olinadi. Demak, Investitsiya dasturi asosida davlat investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini bevosita boshqarib boradi.

Investitsiya loyihalarini boshqarish loyiha tsiklining to'rt bosqichida amalga oshiriladi: investitsiya oldi bosqichi; investitsiya bosqichi; ekspluatatsiya bosqichi va likvidatsiya bosqichi. Loyihalarni boshqarishda ushbu bosqichlarning har birida amalga oshiriladigan ishlarning o'ziga xos jihatlarini inobatga olish zarur bo'ladi.

Hozirgi vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini boshqarish bo'yicha boy tajribalar to'plangan. Mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlarining o'sishi, ishlab chiqarish hajmlarining ortishi, ijtimoiy infratuzilma rivoji va mavjud muammolarning bartaraf etilishi, aynan, investitsiya siyosatining hamda loyihalarning samarali boshqaruviga bog'liqdir.

Evropa ittifoqi mamlakatlarida investitsiyalarni boshqarish, asosan, asosiy kapitalni yangilash va modernizatsiyalashga qaratildi. Yaponiyada iqtisodiyotni tiklash ishlab chiqarish tarmoqlari bandligini oshira borish hamda ularni qayta qurishga mablag'lar ajratishni yo'lga qo'yish orqali amalga oshirildi. Xorijiy

texnologiyalarni qarzga olish evaziga eskirgan dastgoh va uskunalar ishlab chiqarishdan olib tashlandi va shu yo'l bilan ishlab chiqarish tarmoqlari yangilanib, kapital-resurslar jamg'armasiga erishildi. Davlat mamlakatning umumiy taraqqiyotini ta'minlash va uning iqtisodiy hamda ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish uchun ustuvor tarmoq va ishlab chiqarishlarga investitsiyalar joylashni rag'batlantirish va ularni samarali boshqarish siyosatini amalga oshirdi.

Investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirishda quyidagi taklif va tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonini samarali tashkil etish va takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: 1) davlat nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish; 2) tarmoq nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish; 3) alohida xo'jalik sub'ektlari nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. Bunda davlat nuqtai-nazardan investitsiyalarni boshqarish jarayoni bevosita muhim ahamiyatga ega. Davlat, asosan, qonunchilik va ushbu jarayondagi barcha holatlarni nazorat qiladi. Investitsiya loyihalarini boshqarishda esa, asosan rejalashtirish va tashkil etish hamda loyihaning samaradorligini aniqlashdan iborat. Korxona yoki alohida xo'jalik sub'ektlarida investitsiyalarni boshqarish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi;

2. Investitsiya faoliyatini boshqarishdagi muvaffaqiyatsizlikning bosh sababi investitsiya strategiyasining to'g'ri belgilab olinmasligi yoki uning ta'minlanmasligi hisoblanadi. Shu sababdan investitsiya strategiyasini ishlab chiqish va uning amalga oshirilishini ta'minlash investitsiyalar boshqaruvining asosiy vazifasi bo'lishi, investitsiya strategiyasini ishlab chiqish aniq bir faoliyat bo'yicha olib boriladigan chuqur marketing tadqiqotlari natijalariga asoslanishi lozim. Bunda marketing tadqiqotlarini olib boruvchi malakali mutaxassisning bo'lishi hamda tadqiqotlarni olib borishga xizmat qiluvchi etarli va aniq ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish zarur.

3. Investitsiya loyihasi boshqaruvi bo'yicha yuqori malakali va tajribali menejerlarga topshirilishi lozim. Ularning investitsiya loyihasi strategiyasining amalga oshirilishi yo'llarini aniqlash san'atiga, unga erishishda ijodiy yondashuv mahoratiga ega bo'lishi loyiha boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim garovi hisoblanadi.

4. Investitsiya faoliyatini boshqarishda monitoring olib borish maqsadga muvofiqdir. Investitsiya faoliyati monitoringi prognoz ko'rsatkichlarning bajarilishini muntazam o'rganib, nazorat va tahlil qilib borish, mavjud kamchiliklarni aniqlash imkonini berishi sabab ahamiyati yuqori baholanishi lozim.

5. Zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiquvchi va ularga egalik qiluvchi xorijiy tashkilotlarni aniqlash, ularni modernizatsiyalash, mahalliyashtirish va mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish faoliyatlar bo'yicha strategik sherik sifatida jalb qilish zarur. Bu esa investitsiya faoliyatini samarali boshqarish imkonini beradi.

6. Investitsiya faoliyatini kompleks boshqarish bo'yicha mas'ul davlat muassasalarining (Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Investitsiyalar departamenti va boshq.) javobgarligini kuchaytirish, unda ishlayotgan xodimlarning investitsiyalarni boshqarish uslubiyoti bo'yicha bilim, malaka va tajribalarini yanada oshirish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. “Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 25 aprel 1996 yil.
2. “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 30 aprel 1998 yil.
3. “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 30 aprel 1998 yil.
4. “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2014 yil 9 dekabr, O'RQ-380-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari:

5. “Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'grisida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 6 may 2003 yil.
6. “To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11 aprel 2005 yil.
7. “Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'grisida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21 iyul 2005 yil. – №PF-3631.
8. “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'grisida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2 dekabr 2008 yil. – №4059.
9. “To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10 aprel 2012 yil.

10. “Angren” maxsus industrial zonasini barpo etish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 apreldagi PF-4436-sonli Farmoni.

11. “Jizzax” maxsus industrial zonasini barpo etish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 martdagi PF-4516-sonli Farmoni.

12. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi “O’zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-4609-sonli Farmoni.

13. “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo’lidagi to’siqlarni bartaraf eish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi PF-4725-sonli Farmoni.

14. “Kapital qurilishda xo’jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 12 sentyabr 2003 yil. – №395.

15. “Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o’tkazish va tasdiqlash tartibi to’grisidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 7 iyun 2007 yil. – №110.

16. “Xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish va o’zlashtirish jarayonlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 iyuldagi 927-sonli Qarori

17. “2011-2015 yillarda O’zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari to’grisida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 21 dekabr 2010 yil. – №PQ-1442.

18. “O’zbekiston Respublikasining 2015 yilgi Investitsiya dasturi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 17 noyabrdagi 2264-sonli Qarori.

19. “Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o’tkazish

va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 7 iyun 2007 yil. – №110.

20. "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, shuningdek investitsiya loyihalari yuzasidan tashabbus ko'rsatish va amalga oshirish uchun mas'ul yirik korxonalarning tarkibiy bo'linmalarini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 23 martdagi 84-sonli Qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:

21. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida/ Tuzuvchi F.M.Mullajonov. – T.: "O'zbekiston", NMIU, 2005. – 435 b.

22. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston", 2009. – 56 b.

23. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: "O'zbekiston", 2010. – B. 57.

24. Karimov I. A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston". 2012. – 80 b.

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. Xalq so'zi, 2015 yil 17 yanvar, 11-son.

IV. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:

26. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. – T.: “Moliya”, 2000. – 335 b.
27. Андрианов В.Д. Россия: Экономический и инвестиционный потенциал. – М.: «Экономика», 1999. – 214 с.
28. Беренс В., П.М.Хавранек. Руководство по оценке эффективности инвестиций: Пер. с англ. перер. и дополн. – М.: «Интерэксперт», «Инфра-М», 1995. – 425 с.
29. Бирман Г., Шмидт С. Капиталовложения. Экономический анализ инвестиционных проектов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2003. – 556 с.
30. Боди, Зви, Кейн, Алекс, Маркус, Алан. Принципы инвестиций. Пер. с англ. – М.: «Вильямс», 2008. – 784 с.
31. Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. – М.: «Финансы и статистика», 1998. – 180 с.
32. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: “Moliya”, 2010. – 328 b.
33. Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: «Noshir», 2011. – 980 b.
34. Vahobov A. va boshq. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. / Mual.: A.Vahobov, N.Jumaev, U.Burxanov. – T.: “SHARQ”, 2003. – 228 b.
35. Jo'raev A.S. va boshq. Investitsiya loyihalari tahlili: Oliy o'quv muassasalari uchun o'quv qo'llanma – T.: “SHARQ”, 2003. – 225 b.
36. Золотогоров В.А. Инвестиционное проектирование: Учеб.пос. – Мн.: «ИП Экоперспектива», 1998. – 280 с.
37. Кольтинюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной сферы: Учебник. – СПб.: «Михайлова В.А.», 2000. – 432 с.
38. Кузнецов Б.Т. Инвестиции: Учеб. пос. для студентов вузов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2006. – 240 с.
39. Максимова В.Ф. Инвестиционный менеджмент: Учебно-практическое пособие. – М.: «ЭАОИ», 2007. – 258 с.

40. Мазур И.И. и др. Управлениями проектами: Учебное пособие. 4-е изд. – М.: «ОМЕГА-Л», 2007. – 450 с.
41. Махмудов Е. Стратегия инвестирования, её особенности и возрастающая роль в социально-экономических преобразованиях (опыт Узбекистана). – М.: Ж. «Финансы и кредит», №1(169), 2005. – С. 43-45.
42. Макаркин Н.П., Шаборкина Л.В. Инновационный менеджмент: Уч. пос. – Саранск: «Мордовск», 2003. – 160 с.
43. Марголин А.М. Экономическая оценка инвестиционных проектов: Учебник для вузов. – М.: «Экономика», 2007. – 328 с.
44. Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. – М.: «Дашков и К⁰», 2006. – 372 с.
45. Nosirov E.I., Mamatov B.S., Shoislomova N.Q., Sharifxodjaeva K.U. Investitsiya risklarini boshqarish. O'quv qo'llanma. / i.f.d., professor A.V.Vahobovning umumiy tahriri ostida. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2012.
46. Панова Г.С. Инвестиционная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 2007.
47. Станиславчик Е.Н. Бизнес план. Управление инвестиционными проектами. – М.: «Ос-89», 2009.
48. Стратегический менеджмент. / Под ред. А. Н. Петрова. – СПб.: «Питер», 2008.
49. Староверова Г.С. Экономическая оценка инвестиций: Учеб. пос. – М.: «КНОРУС», 2006. – 312 с.
50. Управление инвестициями: В 2-х т. Т. 2. / В. В. Шеремет, В.М. Павлюченко, В.Д.Шапиро и др. – М.: «Высшая школа», 1998. – 310 с.
51. Хамицаева А. Состояние и перспективы промышленности Китая // «Экономист». – М.: 2008. – №9.
52. Черняк В.З. Управление инвестиционным проектом в строительстве. – М.: «Русская Деловая Литература», 2007. – 800 с.
53. Чернов В.А. Инвестиционная стратегия: Учеб. Пособие для вузов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2003. – 158 с.

54. G'ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: “Moliya”, 2003. – 332 b.

55. G'ozibekov D.G'. va boshq. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2004. – 310 b.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar:

56. Ismailov D.A. Iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini boshqarishning funktsiyalari, maqsadi va vazifalari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №4, may, 2012. 24-b.

57. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: “O'ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 1-12-tomlar.

58. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlar hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari. Statistik to'plam. – T.: “O'zbekiston”, 2011.

59. “Tekman-Uz” investitsiya loyihasining biznes-rejasi.

VI. Internet saytlari:

- www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi);
- www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);
- www.ziynet.uz (Ta'lim portali);
- www.worlderisis.ru (Rossiya iqtisodiy tadqiqotlar markazi);
- www.lex.uz (Adliya vazirligi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasi).